

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

Ibrogimova Dildora Usmonjon qizi

**Fitrat dramalaridagi frazemalarning
semantik tahlili**

Bitiruv malakaviy ishi

**Ilmiy rahbar:
f.f. doktori, prof. Z.T.Xolmanova**

Toshkent - 2014

Mundarija

Kirish	3
I bob. Fitrat dramalaridagi frazemalarning semantik tasnifi	7
1.1.Frazemalarning barqaror birikma sifatidagi semantik xususiyatlari.....	7
1.2.Frazemalarning semantik tasnifi.....	17
1.2.1. Fe'l-atvor bildiruvchi frazemalar.....	17
1.2.2. Harakat-holat bildiruvchi frazemalar.....	19
1.2.3. Ruhiy holatni ifoda etuvchi frazemalar.....	23
I bob yuzasidan xulosalar.....	32
II bob. Fitrat dramalaridagi iboralarning uslubiy-semantik, lingvokulturologik xususiyatlari	34
2.1.Fitrat dramalaridagi frazemalarning uslubiy-semantik xususiyatlari.....	34
2.2.Fitrat dramalaridagi frazemalarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	37
II bob yuzasidan xulosalar.....	46
III bob. birikma, gap shaklidagi frazemalarning semantik xususiyatlari	47
3.1.Birikma shaklidagi frazemalarning struktur-grammatik xususiyatlari.....	47
3.2.Gap shaklidagi frazemalarning struktur-grammatik xususiyatlari.....	55
III bob yuzasidan xulosalar.....	60
Umumiy xulosa.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat.....	64

KIRISH

Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov taʼkidlaganlaridek: "...oʻzlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar oʻrtasidagi ruhiy-maʼnaviy bogʻliqlik til orqali namoyon boʻladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir."¹

Adabiyot beqiyos maʼnaviy merosdir. Uni oʻrganish anglash, magʻzini chaqib, hayotiy xulosalar chiqarish, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega boʻlsa, uning tili, ijodkorning oʻz ona tilidan qay darajada foydalanish mahoratini tahlil qilish ham maʼnaviy yuksalish uchun muhim omil hisoblanadi. Chunki asar tilini oʻrganish jarayonida bevosita til tarixiga murojaat qilinadi, soʻz maʼnolari tahlil qilinadi, asar tiliga mansub boʻlgan maqol va iboralar, hikmatli soʻzlar bilan ham tanishib chiqiladi. Har bir asarning badiiy xususiyatlarini oʻrganish, uning gʻoyaviy mazmunini yoritish bevosita asar tili bilan bogʻlanadi. Zero, ustoz Ozod Sharafiddinov "Adabiyot tildan boshlanadi" deganlarida ming bora haq edilar.

Oʻzbek tili boy imkoniyatlarga ega til hisoblanadi, tilimizning oʻziga xos xususiyatlari koʻpgina allomalar tomonidan eʼtirof etiladi. Tilimizning tasviriy ifodalarga boyligi, boʻyoqdorligi adabiy asarlar tilida namoyon boʻladi. Shunday ekan badiiy asar tilini oʻrganish badiiy asarning qimmatini belgilashi bilan birga tilning oʻziga xos jozibali tomonlarini ham ochib beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti islom Karimov taʼkidlaganidek: "Biz ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan bebaho boylikning vorisi sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi oʻta muhim sohalarda ona tilimizning qoʻllanilish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy

¹¹Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – Yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.

lugʻatlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir soʻz bilan aytganda, oʻzbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy oʻzlikni, Vatan tuygʻusini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz”².

Mazkur bitiruv malakaviy ishida jadid adabiyotining yirik namoyondasi boʻlmish Abdurauf Fitratning dramalarida qoʻllanilgan frazeologik birikmalarning semantik tahlili – maʼno qirralarini ochish koʻzda tutilgan. Milliy tilimizning hamda milliy adbiyotimizning taraqqiyoti uchun jonlarini fido etgan jadidchilar, xususan, Fitrat ijodining ham badiiyati, ham tilini oʻrganish, tadqiq etish shu maʼnoda dolzarb sanaladi.

Maʼlumki yozuvchi frazeologiyasining oʻziga xos xususiyatlarini ochib berishda uning frazeologik ijodkorligini oʻrganish katta rol oʻynaydi.³ Shu boisdan adib frazeologiyasini oʻrganish, bu masalaga alohida diqqat koʻrsatish lozim. Fitrat adabiyotshunos olimlar tomonidan har tomonlama va mukammal oʻrganilgan. Tahlil va talqin etilgan. Adib dramalari boʻyicha ham bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Biroq, Fitrat asarlari tili, xususan dramalarida qoʻllaniladigan iboralarning semantik tahlili, adibning ibora qoʻllash mahorati hamda ularning asar badiyatiga oʻrni kabi oʻrganilishi lozim boʻlgan dolzarb masalalar hisoblanadi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi: Oʻzbek tilshunosligida frazeologiya asoschisi filologiya fanlari doktori professor Sh.Rahmatullayev hisoblanadi. Uning oʻzbek tilidagi frazeologik birliklarga xos grammatik-leksik, semantik xususiyatlarga bagʻishlangan bir qancha maqolalari, qoʻllanmalari va monografiyalari eʼlon qilingan. Jumladan, “Oʻzbek tilida frazeologik birliklarning asosiy semantik turlari haqida” (1956), “Sintaktik tahlilda frazeologik birliklar ustida ishlash” (1956), “Hozirgi zamon oʻzbek tilidagi oʻzlashgan frazeologik birliklar haqida”(1957), “Hozirgi zamon oʻzbek tilidagi frazeologik birliklar grammatik qurilishining oʻzgarishi haqida” (1963), “Feʼl frazeologik birliklarda

²Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – Yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008. – B.87.

³Ефимов А.И. Стилистика художественной речи.- М., 1957. –С. 184.

moslashuv”(1964), “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari”, “Nutqimiz ko‘rki”(1970), kabi tadqiqotlari Shavkat Rahmatullayevning haqli ravishda mamlakatimizda o‘zbek frazeologiyasini o‘rganishning asoschisiga ko‘tardi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasi 50-yillardan boshlab, mustaqil soha sifatida shakllana boshlagan. Bunda Sh.Rahmatullayevdan tashqari Y. Penxasov, E. Umarov, I. Qo‘chqortoyev, H. Qahhorova, M. Husainov, M. Ro‘ziqulova kabi olimlarning xizmati katta.

Xususan, frazeologik birliklar I. Qo‘chqortoyev, Sh, Rahmatullayev, A. Rafiyev, Sh.Usmanova, M. Mirzayev, I. Rasulov, A. G‘ulomov, A. Mamatov kabi olimlar tomonidan turlicha tadqiq etilgan. Ularning izlanishida frazemalar oziga xos tomonlari, shakl va ma’no xususiyatlari, badiiy asar tarkibida qo‘llanilish imkoniyatlari kabi masalalarga diqqat qaratilgan. Shuningdek, Fitrat va uning ijodini o‘rganish bo‘yicha ham bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Fitrat faoliyati va hayoti to‘g‘risida ko‘plab maqolalar, ilmiy ishlar, monografiyalar e‘lon qilingan. Asarlari to‘planib, qayta tiklanib nashr etilgan. Jumladan, V. Mahmud, H. Boltaboyev, N. Karimov, S. Sodiqov, D. Quronov, I. G‘aniyev, B. Ergashev singari adabiyotshunos olimlar Fitrat ijodini yetarlicha tadqiq etishgan. Zero, ijodkorning mukamma ijodi va yuksak faoliyati uni har tomonlama chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, Fitrat ijodidagi, xususan, dramalaridagi frazemalar hamda ularning semantik tahlili hali o‘rganilmagan. Ushbu malakaviy bitiruv ishida aynan shu yo‘nalishga, ya’ni ijodkor dramalaridagi frazemalarning semantik tahlilini berishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo‘yilgan vazifalar:

Bitiruv malakaviy ishining oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- Fitrat dramalaridagi frazemalarni semantik jihatdan tasnif etish;
- dramadagi iboralarning muallif badiiy niyatini ifodalashdagi o‘rnini belgilash;
- dramalarda frazemalarning qo‘llanilishi va statistikasini tekshirish;

- Iboralarning lingvokulturologik belgilarini ifodalash;
- Fitrat dramalaridagi frazemalarning grammatik qurilishini aniqlash;
- dramalardagi shaxs fe'l-atvori, ruhiy holati, harakat-holatini shuningdek, hodisa va narsa-buyumlar belgisini bildiruvchi iboralarni tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Malakaviy bitiruv ishining obyekti Fitrat qalamiga mansub “Abulfayzxon”, “Chin sevis”, “Arslon”, “Hind ixtilolchilari”, “Abu Muslim”, “Vose’ qo‘zg‘oloni”, “Shaytonning tangriga isyoni” dramalari, uning predmetini dramalardagi frazeologik birikmalar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. FITRAT DRAMALARIDAGI FRAZEMALARINING SEMANTIK TASNIFI

1.1.Frazemalarning barqaror birikma sifatidagi semantik xususiyatlari

Fitratning dramalarini tadqiq qilishdan oldin barqaror birikmalar xususida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Barqaror birikma. Nutqda fikrni ifodalash uchun barqaror birikmalarga ham ehtiyoj mavjud. Tilshunoslikda barqaror birikma sifatida maqol, matal, ibora kabilar e’tirof etiladi. Tilshunoslikning barqaror birikmalarni o‘rganuvchi bo‘limi paremiologiya (lotincha parema – “barqaror”, logos – “ta’limot”), uning lug‘atini tuzish bilan shug‘ullanuvchi soha esa paremiografiya (lotincha parema – “barqaror”, grapho – “yozmoq”) deyiladi.

Tilda ikki yoki undan ortiq so‘zning bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birliklar ko‘p. masalan, so‘z birikmasi, so‘z qo‘shimchasi, gap, qo‘shma so‘z, tasviriy ifoda, maqol, matal, ibora va h.k. shuning uchun dastlab, turg‘un bog‘lanish va erkin bog‘lanishlarni bir biridan farqlash kerak.

Ikki yoki undan ortiq so‘zning bir grammatik butunlik, ma’noviy yaxlitlik tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so‘z bog‘lanishi erkin bog‘lanish deyiladi. So‘z birikmasi va gap erkin bog‘lanishga kiradi. Chunki, so‘z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi.

Ikki yoki undan ortiq so‘zning qotib qolib, nutqda tayyor shaklda ishlatiladigan bog‘lanish barqaror, turg‘un bog‘lanish deyiladi.

Barqaror birikma qo‘shma so‘z va erkin so‘z birikmasidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Barqaror birikmada birdan ortiq so‘z birikib ko‘chma ma’no ifodalaydi;
2. Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so‘z shu gap tarkibida butunligicha bir bo‘lak yoki bir gap vazifasida keladi;
3. Barqaror birikmaning tarkibiy qismi qat’iy bir qolipga kirgan bo‘ladi;

4. Barqaror birikmani “buzish” – unga soʻz kiritish, almashtirish, olib tashlash mumkin emas.⁴

Grammatik jihatgan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli boʻlgan barqaror birikma maqol deyiladi.⁵

Maqollar quyidagi koʻrinishlarda boʻladi:

1. Qoʻshma gap koʻrinishida: *Oʻzga yurtida shoh boʻlguncha, oʻz yurtida gado boʻl. Kamtar boʻlsang osh koʻp, manman boʻlsang tosh koʻp.*

2. Sodda gap koʻrinishida: *Beli ogʻrimaganni non yeyishini koʻr. Argʻamchiga qil quvvat.*

3. Toʻliqsiz gap koʻrinishida: *Arslon izidan qaytmas, yigit soʻzidan. Oltin oʻtda bilinadi, odam mehnatda.*

Matal deganda toʻgʻri maʼno ifodalamaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega boʻlmagan hikmatli birikma nazarda tutiladi.⁶ Masalan, *qizil qor yoqqanda; tuyaning dumi yerga yetganda; Ali desa, Vali deydi; berdisini aytguncha kabi.* Matalga boshqa bir gap qoʻshilishi bilan fikr toʻliq ifodalanadi. Masalan, *Berdisini aytguncha jim tur. Tuyaning dumi yerga yetganda qarzini toʻlaydi.*

Maqol tugal fikr bildirishi, ibora bir soʻzga teng tushuncha anglatishi, matal esa ergash gapli qoʻshma gap tarkibidagi sodda gapdek “chala fikr” ifodalashi bilan oʻzaro farqlanadi. Mazmuni, obrazi va koʻchma xarakterda boʻlishi bilan esa oʻxshash hisoblanadi.

Ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan, yaxlit bir koʻchma maʼno ifodalaydigan, taʼsirchanlikka ega boʻlgan va maʼnosi bir soʻzga teng keladigan soʻzlar yoki gaplar ibora(frazeologik birlik) deyiladi: *qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan*(yuvosh), *kapalagi uchib ketdi*(choʻchidi).

“Iboralar yirik til birligi boʻlib, kamida ikkita mustaqil soʻzdan(leksemadan) tarkib topadi. Shunga koʻra iboraning ifoda plani deb soʻzlar(leksemalar), shular tarkibidagi til birliklari koʻzda tutiladi. Ibora ham morfema va leksima singari

⁴Nurmonov A, Sobirov Sh, Yusupova Sh., Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T., Ilm ziyo 2010

⁵Nurmonov A, Sobirov Sh, Yusupova Sh., Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T., Ilm ziyo 2010

⁶Nurmonov A, Sobirov Sh, Yusupova Sh., Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T., Ilm ziyo 2010

tarkinli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibida leksimalarga xos ma'nolarni oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi".⁷

Iboralar gap ichida bitta so'roqqa javob bo'ladi va yaxlit ko'rinishda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi. Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Tilshunoslikning iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deyiladi. So'z ham, ibora ham lug'aviy birlik hisoblanadi. Tilning lug'at boyligini tashkil etadi. Ibora so'z birikmasi va gap singari nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki xuddi so'z kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

So'zning shakliy tomoni tovushdan iborat bo'lsa, iboraning shakliy tomonini so'z tashkil etadi: rahmdil(r+a+h+m+d+i+l) – ko'ngli bo'sh(ko'ngli+bo'sh).

Iboraning qismlari qat'iy bir qolipga kirib ketganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga so'zma so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Ibora so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi:

- 1) So'z birikmasi shaklidagi ibora: *anqoning urug'I, bosh ko'tarmoq*.
- 2) Gap shaklidagi ibora: *ko'zi ochildi, dami kesildi, tili tutildi*.

Iboralarning ham so'z kabi shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari bor:

1) ***ko'p ma'noli(polisemantik iboralar)***. Birdan ortiq ma'noni anglata olish til birliklariga xos xususiyat bo'lib, iboralarning ham talay qismida uchraydi. Birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ibora ko'p ma'noli(polisemantik) ibora deyiladi. Polisemantik iboralarning k o'pi ikki ma'noli; uch ma'noli iboralar anchagina bo'lib, to'rt, besh ma'noli iboralar ham uchraydi. Masalan, *Ko'zi ochildi*: 1) "qoqilib tushundi"; 2) "ko'rdi". *Bosh ko'tarmoq*: 1) "sekin sog'aymoq"; 2) "sekin qaramoq"; 3) "qo'zg'alon qilmoq". *Qo'lga olmoq*: 1) "o'z ixtiyoriga o'tkazmoq"; 2) "bosib olmoq"; 3) "hibsga olmoq"; 4) "o'z xohishiga bo'ysundirmoq".

⁷ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б.4.

Frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo'lgani singari bosh ma'no va yasama ma'no(hosila) ma'no farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng. Frazeologik polisemiyada, bundan farqli ravishda, bosh ma'no, ham ko'chma(obrazli) ma'no bo'ladi. Chunki, har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.

2) **omonim iboralar.** Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi – omonimiya – frazeologik birliklarda ham mavjud. Bir xil qism(so'z)dan tuzilgan, ya'ni shaklan o'xshash, ammo ma'nosi har xil bo'lgan ibora omonim ibora deyiladi: *uyni boshiga ko'tarmoq – onasini boshiga ko'tarmoq*. Frazeologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe' bo'ladi: *qo'l ko'tarmoq I* va *qo'l ko'tarmoq II* kabi.

3) **sinonim iboralar.** Sinonimiya – ma'no asosida belgilanadigan hodisa. U til birliklari orasidagi semantic mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular bir ma'noni bildirishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin iboralarni sinonim iboralar deyish to'g'ri bo'ladi: *toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, terisiga sig'madi – boshi osmonga yetdi*.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa boshqa obrazlar yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz; bir shingil; bir chimdim* sinonim iboralar asosida har xil obrazlar yotadi, ya'ni so'zlash organi; bir bosh uzumning qismi; chimdim olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibda ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, "butun tafsiloti bilan, mayda chuydasigacha" ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha*,

qilidan quyrug'igacha iboralarini o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q.

Shunday qilib, lug'aviy birlik sifatida ibora so'z bilan sinonimlik tashkil qila oladi: *g'azablanmoq – joni chiqmoq, maqtamoq – ko'klarga ko'tarmoq*.

4) **antonim iboralar**. Antonimiya til birliklari orasida semantic munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiya belgilash, bir tomondan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiya bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi. Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi ibora antonim ibora deyiladi: *ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, qo'li uzun – qo'li qisqa*.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson: *savol bermoq va javob qaytarmoq; yerga urmoq va ko'kka ko'tarmoq*. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so'z-komponentlar, ikkinchi antonym tarkibidagi birinchi so'z-komponentlar o'zaro antonim. Quyidagi antonim iboralar tarkibida qatnashgan leksik komponentlar – ayni bir so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so'zlar: *yuragi keng vayuragi tor*. Boshqa bir misol: *ko'ngli joyiga tushdi vayuragiga g'ulg'ula tushdi*. Bu antonim iboralarda tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchisi ayni bir so'z, birinchisi o'zaro sinonim, ikkinchisi o'zaro ma'no munosabati hosil qilmaydi.

5) **paronim iboralar**. Iboralar orasida, shaklan teng kelishdan tashqari shakily yaqinlik hodisasi ham bor. Shu asosda frazeologik va frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin. Ba'zi iboralar o'zaro leksik tarkibidagi bir so'z-komponenti bilangina farq qiladi, shu farqli so'z-komponentlar ham bir-biriga o'xshash bo'ladi, ya'ni tarkibidagi bir so'z bilan farqlanib, boshqa-boshqa ma'no anglatuvchi iboralar paronim ibora deyiladi: *yuragi tars yorilib ketayozdi – sabr chidami tugamoq; yuragi qoq yorila yozdi – sevinganidan qatiq hayojonlanmoq*.

Ikki ibora tarkibi jihatdan aynan bo‘lib, grammatik tarkibi jihatdan farqlanib turishi mumkin. Bundan iboralarga frazeologik paraformalar deyiladi. Masalan, *jon(i) kirdi – jon(i)ni kirgizmoq* iborasidan *jon kirdi – jon kirgizmoq* ibora grammatik tarkibida egalik affiksi yo‘qligi bilangina farqlanadi; *pay(i)ga tushmoq* iborasidan *pay(i)dan tushmoq* iborasi ot komponentining boshqa kelishikda kelishi bilangina farqlanadi.

Ma’lumki, Fitrat ijodi va uning yozuvchilik mahorati o‘z davrida ham, bugungi kun adabiyotshunosligida ham yuksak baholanadi va e’tirof etiladi. Chunki, adib o‘z asarlarida badiiyatni vujudga keltiruvchi ko‘plab omil va unsurlardan mahorat bilan foydalanadi. Bu haqda o‘z davrida adabiyotshunos vadud Mahmud shunday deydi: ”Fitratning asarlarining bir ortig‘lig‘i uning yuksak va eng mukammal tashbeh, mubolag‘a va istioralarga ega bo‘lishidir. Haqiqatan, Raximbaxshning Dilnavozga undagan so‘z “yangigina ochilg‘an qayg‘I chechag istiorasi va “ularga (anglizlarga) qarshi tirnog‘imizda yaroqdir” kabi mazlumlarning haqsizligi yaxshi tasvir etilgan mubolag‘alari ko‘rilmagan va eshitilmagan darajada chiroyliq va tugildir”⁸

Shuning uchun ham uning qalamiga mansub “Abulfayzxon”, “Chin sevish”, “Vose’ qo‘zg‘oloni”, “Arslon”, “Shaytonning tangriga isyoni” singari dramalari XX asr dramaturgiyasiga o‘zining yuksak hissasini qo‘shdi. Bu asarlar mavzu dolzarbligi, ifodaning tushunarligi, badiiyatning yaxshi ekanligi bilan o‘quvchilarning e’tiborini tortgan, adabiyotshunoslar tomonidan jiddiy e’tiborga olingan. Shuningdek, Fitrat dramalari tilining o‘ziga xosligi, dramalarida qahramonlar nutqida frazeologik birikmalarning ham o‘z o‘rnida, mohirona qo‘llanilishi asar badiiyatini ta’min etish bilan birga, ona tilimizning keng imkoniyatlari va o‘ziga xos obrazli va bo‘yoqdor ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishimizda Fitratning yuqorida ko‘rsatilgan dramalarida qo‘llangan iboralarning semantik tahliliga bevosita diqqat qaratgan ekanmiz, bu

⁸ Mahmud V. Tanlangan asarlar. -T. : Ma’naviyat, 2007. 74-bet

iboralarning qanday o'rinda, qanday maqsad bilan, nimani ifodalash uchun qo'llanilayotganligini ham tushuntirib o'tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Fitrat o'z dramalarida xalqning jonli tilida mavjud iboralardan asar ta'sirchanligi va badiiyatini oshirish bilan birga, qahramon ruhiyati va kayfiyatini, shuningdek, fe'l-atvorini ko'rsatish uchun ham foydalangan.

Masalan, "Abulfayzxon" dramasiidagi bir parchada "mazasini qochirmoq" iborasi shu tariqa qo'llangan:

"Mir Vafo: Biroq, Rahim to'qsobani Chorjo'yg'a yuborishingiz xonning

Ushbu ibora xalq tilida "yomon ahvolga solish" yoki "o'ng'aysizlantirish" ma'nolarida qo'llaniladi. Bu ibora aksariyat salbiy ma'noda, salbiy vaziyatlarda qo'llaniladigan birikma bo'lib, yozuvchi ayni o'rinda bu iborani topib qo'llay olgan.

Yoxud, "Shaytonning Tangriga isyoni" dramasida:

*"Tilim qachon sening uchun sayrasa
Yuragimni qitiqlaydi bir narsa"*⁹.

parchasida "yurag(i)ni qitiqalmoq" iborasi bezovta qilmoq yoki xavotirga solmoq ma'nolarida ishlatilgan. Bu ibora *yurag(i)ni tirnamoq* iborasining adib ijodiy yondashuvi natijasida o'zgartirilgan varianti bo'lib, bir-biridan ma'no qirrasiga ko'ra farq qiladi. *yurag(i)ni qitiqlamoq* iborasi shubha qilish, gumonsirash natijasida azoblanish ma'nolarida qo'llansa, *yurag(i)ni tirnamoq* iborasi esa ruhiy azoblamoq ma'nosini anglatadi.

Ma'lumki, bittadan ortiq ma'noni anglata olish, til birliklari, ayniqsa iboralarga xos xususiyatdir. "Shaytonning Tangriga isyoni"da ham shunday iboralar qo'llangan, bu esa yozuvchining so'z qo'llash mahoratini ko'rsatgan.

*Yog'iy bo'ldim bu kun ulug' Tangriga
Ko'tarmadim, yerga urdim so'zini.*

Bu o'rinda *yerga urmoq* "bajarmaslik" ma'nosida qo'llangan.

Bu ibora "kamsitish" ma'nosini ham bildiradi.

⁹ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. 1 жилд. –Т.: Маънавият, 2003. 221-bet

Adib nafaqat qahramonlar tilidan, balki o‘z tilidan, ya’ni remarkalarda ham iboralardan foydalangan.

“Shayton malaklarining bu holig‘a es qo‘yib, quvonib qarag‘andan so‘ng, so‘ylaydir”.¹⁰ Ushbu o‘rinda es qo‘ymoq iborasi “diqqat qilmoq”, “berilmoq” ma’nosini ifodalagan va ravishdosh shakliga kelib qarash harakatining holatini, ravishini ifodalashga xizmat qilgan. Aynan shu dramada Mikoil obrazi tilidan aytilgan:

“Ko‘ngling nechun qorong‘ulikka to‘ldi”

gapida *ko‘ngilning qorong‘ulikka to‘lishi* iborasi ruhiy holatni ifoda etish uchun qo‘llanilgan. Shuningdek, *oshiga og‘u qotmoq* – xiyonat qilmoq, dushmanlik qilmoq; *qayg‘u ostida* – xafa; *kattalik qilmoq* – mensimaslik; *bir chaqaga qimmat* – ahamiyatsiz, qiymatsiz kabi iboralar turli o‘rinlarda, turli ma’nolarda qo‘llanilgan.

“Chin sevish”, “Vose’ qo‘zg‘oloni”, “Arslon” hamda “Hind ixtilolchilari”da ham bir qancha iboralar mahorat bilan qo‘llanilgan.

Jumladan, “Chin sevish”da ham bir qancha iboralar va ularning ma’nolarini ko‘rsatish mumkin.

*Rahmatulloh (Shukrulloq‘a): Hayda, qardosh. Yuraklarimiz tutashib qoldi. Suving bo‘lsa, keltur, bir oz sipqaraylik.*¹¹ Ushbu o‘rinda keltirilgan “yurakning tutashib qolishi” iborasi ruhiy holatni ifodalash uchun qo‘llangan. Ya’ni, asar qahramoni Rahmatullohning Zulayhoni sevib qolgandan so‘nggi chekkan iztirobini bildirgan.

Yurakning tutashishi shakldosh ibora bo‘lib boshqa nutqiy vaziyatda boshqa bir ma’noni bildiradi. Ya’ni, *yuragi tutashmoq* “mehr-muhabbat qo‘ymoq” ma’nosida ham qo‘llanilishi mumkin. “Arslon” dramasida ham har xil ruhiy holatlar, harakat-jarayonlarni ifodalash uchun xalq jonli tilida mavjud iboralardan

¹⁰ Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. 1 жилд. –Т.: Маънавият, 2003. 220-bet

¹¹ Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар, 1 жилд. - Т.:Маънавият, 2003. 133-bet

unumli foydalanilgan. Ham qahramonlar tilida, ham muallif tilida iboralar qo'llanilib ular asarlarning o'qishlilikini ta'min etgan.

“Hind ixtilolchilari” dramasida ham muallif turli o'rinlarda turli harakat holatlarni ifoda etishda yuzlab iboralardan o'rinli foydalangan. “Sizning qonlaringizni qaynatmoqchi. Shularni orasinda tinch turmoq sag`ana boshida chog'ir ichmakka o'xshaydir, yarashmaydir.”¹² “Kasal birdan qattiq talvasaga tushadir”. Bu o'rinda *talvasaga tushmoq* iborasi “vahimaga tushmoq” holatining yuqori darajasini bildirib, asar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. “Vose' qo'zg'oloni”da ham bunday birliklar ko'pchilikni tashkil qiladi.

“Pichoq borib suyakka tegdi. Nima qilsang, qil!”¹³

Bu o'rinda ushbu ibora “Sabr kosasi to'lmoq” iborasi bilan sinonim bo'lib, dramada “bezgan” ma'nosida qo'llangan. Bundan tashqari u *joniga tegmoq* iborasiga ham sinonim bo'ladi.

“Badiiy asarda tasvirlanayotgan inson obrazining haqiqiy bo'lishi uchun qator shartlarga rioya qilish talab etiladi. Birinchidan u tipik obraz bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, bu obraz hayotdagi ma'lum bir ijtimoiy guruh vakiliga o'xshashi, mana shu ijtimoiy guruh a'zolarining tipik xususiyatlarini o'zida gavdalantirgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, u individual obraz bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, bu obraz konkret bir shaxs sifatida tasvirlanishi kerak.”¹⁴ Bunday shartlarning yuzaga chiqishi uchun asar muallifi bir qator omillarga e'tibor qaratishi kerak. Shunday omillardan biri bu tasvir etilajak obrazning fe'l- atvoriga, harakat- holatiga, ruhiyatiga mos kelajak frazemaning topib qo'llanilishidir. O'rganayotganimiz mavzu bo'yicha yuqorida ko'rsatganimizdek, Fitrat dramalarida ham ko'plab frazemalar ko'plab o'rinlarda, ma'lum maqsad bilan, ma'lum bir ma'noni anglatishi uchun qo'llangan. Umuman

¹² Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар, 1 жилд. - Т.: Маънавият, 2003. 136-bet

¹³ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. 11 жилд. - Т.: Маънавият, 2003. 172-bet

¹⁴ Кўчкортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик новаторлиги, филол. фан. номзодлик дисс. –Т, 1965. 131-bet

olganda, Fitrat qalamiga mansub dramalarda mavjud iboralarning soni, taxminan, 300ga yaqin.

Ular turli o‘rinlarda, turli ma’nolarni ifoda etish uchun qo‘llanilgan bo‘lib, ularning qanday ma’no anglatishiga, ya’ni, semantikasiga qarab quyidagicha tasnif qilinishi maqsadga muvofiq:

1.2. Frazemalarning semantik tasnifi

1.2.1. Fe'l-atvor bildiruvchi frazemalar

Badiiy adabiyotdagi inson obrazi ham xuddi hayotdagi kabi o'z xulq-atvoriga ,ya'ni o'z xarakteriga ega holda yaratiladi. Bu badiiy asarda aks ettirilgan muhitning va turmushning haqqoniy aks ettirilishiga omil bo'ladi. bu haqida adabiyotshunos M. Qo'shjonov shunday yozadi: "Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar, xarakterlar yaratar ekan, u o'z fantaziyasining mutlaq bandasi bo'lib qola olmaydi. Yozuvchi istagida ustun tura oladigan, uning qalami yo'nalishini belgilab berdigan ma'lum kuchlar borki, san'atkor ular bilan hisoblashmay iloji yo'q. shulardan biri hayot mantig'idir. Hayot mantig'i badiiy asarda ikki aspektda kuchga egadir. Birinchisi voqealarda, ikkinchisi xarakterlarda... Lekin har ikki holda ham, agar asar badiiy asar bo'lsa, yetakchi kuch xarakterlar mantig'idir¹⁵. Bundan ko'rinadiki, yozuvchi obraz yaratishda til vositalaridan xarakterlarga mosini tanlab qo'llay olishi kerak. Fitrat dramalarida bu qoidaga amal qilish muallif badiiy maqsadini, asar badiiy qimmatini va g'oyasini yuzaga chiqarishda qahramonlar o'rnining ahamiyatini oshirgan.

Dramalardagi fe'l-atvor bildiruvchi frazemalarni tekshirgan holda ulardan ayrimlarini keltirib o'tishni joiz topdik.

- *bir qilg'i ortiq – "g'ayritabiiy"*
- *ishning ko'zini biladigan – tadbirli,*
- *tulki qiliqli – ayyor,*
- *dunyo ko'rgan – tadbirli, tajribali;*
- *mayin qiliqli – muloyim,*
- *o'g'urli qushday – muttaham,*
- *imonning tamalini qozg'on – imonsiz, vijdonsiz,*
- *oyog'i ostidan narini ko'rmaydigan – kalta o'ylaydigan,*

¹⁵ Қўшжонов М. Сюжетда воқеа ва характерлар мантиғи масаласи // ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1964, 5-бет

- *quyruq bo'lg'uchi – laganbardor, xushomadgo'y,*
- *istarasi issiq – xush korinadiganyoqimli, jozibador¹⁶,*
- *miyasi qorong'u – saviyasiz, sabotsiz,*
- *qo'li ochiq- saxiy, mehribon,*
- *tosh kongullik – yomon, berahm,*
- *esini yo'qotgan – aqlsiz,*
- *yuzidan nur yog'adigan – yoqimli,*
- *ko'ngli sof – yaxshi,*
- *Tangri qarag'an – yaxshi,*
- *oq ko'ngil – yaxshi, mehribon, beg'ubor(insonga nisbatan)*

¹⁶Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.-Т.: Ўқитувчи,1978. 114-б

1.2.2. Harakat-holat bildiruvchi frazemalar

Tilda harakat holatni ifoda etuvchi soʻzlar, yaʼni feʼl turkumiga odi soʻzlar katta bir turkumni tashkil etadi va oʻz navbatida koʻp qirrali hisoblanadi. Feʼl soʻz turkumining oʻzbek tilida juda keng soha ekanligi hammaga maʼlum. Bu haqida M.Sodiqova shunday yozadi: “Feʼllarning juda keng soha ekanligi grammatik kategoriyalarga, formalarga boyligi, sintaktik potensiyalarining boshqa hech bir soʻz turkumi bilan tenglashtirib boʻlmaydigan darajada kuchliligi kabi xususiyatlardan iborat.” Xuddi shuningdek, frazeologik birikmalar – frazemalarning ham koʻpchiligi harakat va holatning turli shakllarini boʻyoqdor va jozibali, taʼsirchan qilib tasvirlaydi.

Maʼlumki, hayotning oʻzi tinimsiz harakatdan maʼlum bir maqsadga qaratilgan faoliyat, holat va jarayonlardan iborat. Obrazli aytilganda harakat bu hayotdir. Til esa oʻz oʻrnida hayotda mavjudliklarni aks ettirgani uchun tildagi soʻzlarning ham aksatitini feʼl turkumiga odi soʻzlar tashkil etadi. Hayotdagi jamiyki jarayonlar harakat tashkil etar ekan tilda mavjud iboralarning ham koʻpchiligi aynan harakat va holatni ifodalab feʼl soʻz turkumiga oid birliklarning oʻrnida qoʻllaniladi. Biz oʻrganish obʼektiga Fitrat dramalarida ham aynan mana shunday frazemalar aksariyat qismni tashkil etadi.

Aytish kerakki, feʼl asosida ifodalangan ish harakat maʼlum bir shaxs yoki narsa buyum tomonidan bajariladi. Mana shu shaxs yoki narsa buyum uning bajaruvchisi hisoblanadi. Shunday ekan feʼlga oid soʻzlar va iboralar oʻz bajaruvchisining feʼl atvori, ruhiy holati, shuningdek, saviyasi va madaniyatini ham anglatib turadi.

Yuqorida takidlaganimizdek, Fitrat dramalaridagi harakat-holat bildiruvchi frazemalar koʻplab uchraydi hamda asar mazmuni va gʻoyasining taʼsirchan ochib berilishi qahramonlarning jonli qiyofasini chizishga koʻmak beradi.

Bunday frazemalar drama qahramonlarining feʼl-atvori, xarakter-xususiyati, shuningdek ichki dunyosi va odatlarini ham oʻquvchiga yetkazish uchun

qo‘llangan. Aynan bitiruv malakaviy ishimizga ob‘yekt qilib olingan Fitrat dramalarida ham harakat va holatni ifoda etadigan frazemalar ancha miqdorni tashkil etadi:

- *o‘z boshini yemoq- yo‘q qilmoq, halok qilmoq*¹⁷;
- *so‘z olmoq – gapirmoq*;
- *orasini buzmoq – o‘zaro munosabatini yomonlashtirmoq*;¹⁸
- *bir og‘izdan – yakdillik bilan*;
- *qo‘lga olmoq – 1. turmoq 2. egallamoq, o‘z ixtiyoriga o‘tkazmoq*¹⁹
- *dunyoni titratmoq – biror jihatdan yuksaklikka erishmoq*;
- *eshikka uzatmoq – kuzatib qo‘ymoq*;
- *so‘zidan qaytmoq – ahdidan qaytmoq*;²⁰
- *o‘z holiga qo‘ymoq – bezovta qilmaslik*;
- *qo‘l qovushtirmoq – chorasiz qolmoq*;
- *oyog‘ini o‘pmoq – xushomad qilmoq, laganbardorlik qilmoq*;
- *kulini ko‘kka uchirmoq – butunlay yo‘q qilmoq, sovurmoq*;
- *boshiga davlat qushi qo‘nmoq – omadi kelmoq, yuqori darajaga ko‘tarilmoq*;
- *so‘zidan chiqmoq – aytganini qilmaslik*;
- *kattalik qilmoq – mensimaslik, manmansiramoq*;
- *tuproqdan ko‘tarmoq – sha‘nini, darajasini oshirmoq*;
- *boshiga chiqmoq – o‘z izmiga yurgizmoq*;
- *tinchini buzmoq – bezovta qilmoq*;
- *mazasini qochirmoq – yomon vaziyatga, og‘ir ahvolga solmoq*;
- *ishdan chiqmoq – charchamoq, yaroqsiz holga kelmoq*;
- *esiga kelmoq – xotirasida tiklanmoq*;²¹
- *shaytonlik qilmoq – ayyorlik qilmoq*;

¹⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.-Т.: Ўқитувчи,1978.50-bet

¹⁸ O‘sha manba.192- bet

¹⁹ O‘sha manba. 297-bet

²⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.-Т.: Ўқитувчи,1978. 220-bet

²¹ O‘sha manba. 255-bet

- qo‘lga tushirmoq – aldab o‘z ixtiyoriga olmoq;²²
- u dunyoga yubormoq – o‘ldirmoq;
- dardini ochmoq – so‘zlammoq;
- yuragi kuymoq – ruhiy holati yomonlashmoq;
- baloga giriftor bo‘lmoq – og‘ir ahvolda, yomon vaziyatda qolmoq;
- o‘zini o‘qqa cho‘qqa urmoq – jonkuyarlik bilan harakat qilish(biror maqsadda);
- qurbi yetmoq – bajara olmoq;
- cho‘ntagi qurimoq – moddiy ahvoli yomonlashmoq, mablag‘I tugamoq;
- qiyomat qoyim bo‘lmoq – janjal ko‘tarilishi, to‘polon;
- tuzog‘iga tushmoq – tutilmoq, ushlanmoq;
- bahosi yarim chaqaga tushmoq – mavqei, obro‘si pasaymoq;
- ko‘zini tikmoq – qaramoq;
- ko‘nglini ko‘tarmoq – xursand qilmoq;
- jonini olmoq – o‘ldirmoq;
- qo‘li bo‘shamoq – vaqti bo‘lmoq;
- gapni cho‘zmoq – ko‘p gapirmoq;
- o‘lim yotog‘ida – og‘ir kasal;
- so‘ziga kirmoq – aytganini qilmoq;
- damini chiqarmaslik – gapirmaslik;
- rahmatiga qovushmoq – o‘lmoq;
- oshiga og‘u qotmoq – yomonlik qilmoq;
- ketiga tushmoq – kuzatmoq;
- es qo‘ymoq – diqqat qilmoq;
- mantiq sotmoq – befoyda gapni ko‘p gapirmoq, o‘rinsiz gapirmoq;
- yo‘lga keltirmoq – ko‘ndirmoq;
- qanoti ostiga olmoq – rahbarlik qilmoq, mutasaddi bo‘lmoq;
- tilini bilmoq – anglamoq, tushunmoq;

²² O‘sha manba. 296-bet

- qarg‘a qo‘ndirgan butoq topolmaslik – og‘ir moddiy ahvolda qolish;
- bo‘yniga olmoq – 1. tan olmoq 2. qabul qilmoq;²³
- bo‘sh tutmoq – sekinlatmoq;
- bosh ko‘tarmoq – 1. qo‘zg‘olon qilmoq 2. tuzalmoq;
- belini yeti yerdan bog‘lamoq – puxta tayyorlanmoq, mukamma bo‘lmoq;
- qonini emmoq(ichmoq) – azoblamoq;
- o‘zini yig‘ishtirmoq – aql bilan ish ko‘rmoq;
- ko‘nglini ovutmoq – tasalli bermoq;
- sadag‘asi ketmoq – minnatdor bo‘lmoq;
- qo‘l qovushtirmoq – chorasiz ahvolda qolmoq;
- so‘zni uzatmoq-ko‘p gapirmoq
- qo‘lidan kelmoq-bajarishga qodir;²⁴

²³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.-Т.: Ўқитувчи, , 1978. 66-bet

²⁴ О‘sha manba 299- bet

1.2.3. Ruhiy holatni ifoda etuvchi frazemalar

Ma'lumki asar qahramoni fikrini, ruhiy kechinmalarini, vaziyatini, holatini haqqoniy ifodalash, ular nutqining o'ziga xos, individual xususiyatlarini to'g'ri aks ettirish realistik san'atning bosh talablaridan biridir. Busiz to'laqonli asar yaratib bo'lmaydi. Personajlar nutqining o'ziga xosligi ularning" tushuncha saviyasi, odatlari, kasbi, qaysi tabaqaga oidligi, biimi, ruhiyati, individual xislatlari²⁵" ga bog'liq bo'ladi. Fitrat badiiy asar ustida ishlar ekan, personajlar ruhiyatga, ularning holati va vaziyatini to'g'ri ifodalashga, qahramonlarning o'ziga xos tabiatini borttirib korsatishga alohida ahamiyat beradi. Bunda albatta adabiy tilimizning so'z ma'nosining turli qirralarga va iboralarga boyligi qol keladi. Bularning quyida ham royxatini keltiramiz va ba'zilarining izohini beramiz.

- *yuragi yorilmoq – qo'rqmoq, cho'chimoq;*
- *yuragi ezilmoq – diltang bo'lmoq, ziq bo'lmoq;*
- *ko'ngil uzmoq – unutmoq;*
- *joni chiqmoq – 1. o'lmoq, so'ngi marta nafas chiqarmoq 2. nihoyatda qattiq g'azablanmoq, darg'azab bo'lmoq;*²⁶
- *sho'ri qurimoq – yomon, og'ir darajadagi vaziyatda qolmoq;*
- *qoni qaynamoq – g'azablanib ketmoq;*
- *qaynab ketmoq – g'azabi jo'sh urmoq, qattiq jahli chiqmoq;*
- *tishini g'ichirlatmoq – jahli chiqmoq;*
- *qayg'u ostida – xafa;*
- *ko'ngli qorong'ulikka to'lmoq – tashvishlanmoq, siqilmoq;*
- *tili tutilmoq – biror narsa tufayli gapira olmay qolish;*
- *jon olmoq – 1. ahvoli yaxshilanmoq, tetiklashmoq 2. o'ldirmoq*
- *talvasaga tushmoq – haddan tashqari qo'rqmoq yoki og'ir ruhiy holatga tushib qolish;*

²⁵ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. Тошкент. 1968.

²⁶ O'sha manba. 100-bet

- *ko ‘ngli qoralanmoq – ruhiyati yomonlashmoq, tashvishga tushmoq;*
- *qayg ‘uga botmoq – ruhiy azoblanmoq;*
- *yurakka olov tushmoq – sevib qolmoq;*
- *o ‘zini yo ‘qotmoq²⁷ – 1.mensimaslik, takabburlik qilish 2. og ‘ir ruhiy holatda ongini yo ‘qotish;*
- *dimog ‘i chog ‘ bo ‘lmoq – xursand bo ‘lmoq;*
- *dodiga yetmoq – dardini anglamoq, arzini eshitmoq;*
- *og ‘ziga qarab – o ‘ylab turib;*
- *yuragi yorilmoq – qattiq cho ‘chitib qo ‘rqitmoq²⁸;*
- *joniga tegmoq – bezmoq;*
- *pichoq borib suyakka tegdi – ortiq chidab bo ‘lmaydi,²⁹*
- *bo ‘tadek bo ‘zlamoq – zor bo ‘lib kutmoq, intiq bo ‘lmoq;*
- *boshiga ish tushmoq – qiyin vaziyatga qolmoq;*

Mana shunday iboralar bilan Fitrat obrazlarning ruhiy holatini tasvirlashda kitobxon tasavvurini yanada kengaytirish va tasvirni yanada tiniqlashtirish maqsadida foydalangan va bunga erishgan.

Norxola. Nafasingizdan o ‘rgulay, domlajon, hay sadg ‘angiz ketay,hay. Ushbu orinda ham kutilmagan xushxabardan *boshi ko ‘kka yetgan* kampir ruhiy holati uning nutqida qatnashgan iboralar orqali ravshan ko ‘rsatib berilgan.

Yuqorida Abdurauf Fitrat dramalaridagi iboralarning harakat va holatni ifoda etuvchilarning semantik tahlilini keltirganimiz holida, ularning o ‘zini aynan qanday faoliyat-jarayonni yoki holatni ifodalashiga ko ‘ra ham o ‘z ichida ma ‘noviy guruhlarga ajratish mumkin.

²⁷“Arslon” dramasida kutilmagan ruhiy zarbadan yoki g ‘azabdan o ‘zini anglolmay qolish ma ‘nosida kelgan (muallif)

²⁸ O ‘sha manba. 271-bet

²⁹ Раҳматуллаев Ш. . Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Т.:Ўқитувчи, 1978

Jumladan, ba'zi "fe'l frazemalar" nutqiy faoliyatni obrazli tasvir etadi. Ba'zilar aqliy faoliyat, ba'zilar jismoniy faoliyatni yana ba'zi birlari holatni ifoda etadi.

Fitrat dramalari nutqiy faoliyatni bildiruvchi fe'l frazemalar ishtirok etgan o'rinlardan ba'zilarini keltiramiz.

a) nutqiy faoliyatni bildiruvchi fe'l frazemalar;

- Norxola. Ular bo'lsa edi, bubadbaxt damini chiqarolmas edi. shuning uchun ularni qamatdi-da

("Arslon"dramasi 139-bet)

- Meni saylashga sayladilaring, ammo quloq osmasalaring bundan ne foyda?

("Vose' qo'zg'oloni"dramasi 183-bet)

- Shuncha qilamen, *og'iz ochmaydir.*

("Chin sevish", 19-bet)

- O'kunar. (tutmoqchi bo'lib) *so'zning ustini yopma*

("Hind ixtilochilari", 74- bet)

- Bu mag'orani sizga kim *darak berdi.*

("Hind ixtilochilari"dramasi 83-bet)

b) aqliy faoliyatni bildiruvchi fe'l frazemalar:

Dilnavoz. (*o'zini yig'ishtirib*) kim keldi?!

("Hind ixtilochilari", 50-bet)

Qizlarning *tilini* onalar *bilalar*

("Chin sevish", 18-bet)

c) jismoniy faoliyatni bildiruvchi fe'l bildiruvchi fe'l frazemalar:

Yuz yildan keyin biz o'zimizni qutqarmoq uchun *bosh ko'tardik.*

("Hind ixtilochilari", 63- bet)

Ko'zi jonsiz jasadlarga *tushib* qo'rqadi

("Vose' qo'zg'oloni", 192-bet)

Hindistonni o‘z *qo‘ling‘izg‘a olmoq* uchun har bir musulmonning tirishmagi tayin.

(“Hind ixtilolchilari”, 50-bet)

d) holat bildiruvchi fe‘l frazemalar;

Orgilay, Oyimxon, sadag‘angiz ketay, *yuragim yorildi*. O‘la yozdim.

(“Arslon”, 139-bet)

Bu yigitning *rangi o‘chgan*. O‘zi juda xafa

(“Arslon”, 143-bet)

Amirning *achchig‘lari kelganda* uni yetmish besh tayoq urib riqobdan haydaganlar.

(“Arslon” 147-bet)

Ko‘rib chiqqanimizdek, Fitrat dramalaridagi iboralar asar qahramonlarining ruhiy holati, hatti-harakati, shuningdek fe‘l-atvorini ham ifoda qilishda salmoqli ahamiyat kasb etgan.

Biz ko‘rib chiqqan tasnifdan tashqari Fitrat o‘z dramalarida tilda mavjud yana shunday turg‘un birikmalardan foydalanganki, bular ba‘zan narsa-buyum yoki voqea-hodisaning ham xususiyatini obrazli ifodalab kelgan. Masalan,

yarim chaqaga qimmat – ahamiyatsiz;

bir chaqalik bahosi yo‘q – ahamiyatsiz, keraksiz;

miyaga sig‘mas – aql bovar qilmaydigan, g‘ayritabiiy;

sichqon sig‘magan – kichkina kabi iboralar ham keltirilgan.

Yozuvchi tomonidan matnga kiritilgan ozgartirishlar uning badiiy mahoratini, yozuvchilik san‘atini o‘rganishdagina emas, balki adabiy tilning umumiy taraqqiyoini tekshirishda ham tengsiz manbalardan bo‘lib xizmat qiladi. Bu haqida professor A. Yefimov o‘zining „Badiiy nutq stilistikasi“ kitobida shunday yozadi: “Yozuvchining o‘z asarlari tilini aniqlash ustida ishlashini tekshirish adabiy til taraqqiyotining asosiy yollarini belgilashda katta ahamiyatga

egadir.³⁰ Demak yozuvchi o'z asarini yaratishda, undagi obrazlar xarakteri, holat va jarayonlar tasvirini ifodalashda qanchalik chuqur ijodiy yondashib, badiiy kashfiyotlar qilsa, u haiqiqiy badiiy asar-san'at namunasini yaratgan boladi. Abdurauf Fitrat asarlarida, xususan dramalarida, buni uchratish mumkin. Adib yuqorida korib chiqqanimizdek, xarakter-holatini berishda frazemalardan ham ornida mahorat bilan foydalanganki, ular asar yashovchanligiga yana bir omil bolgan desak yanglish bolmaydi. Ko'rib chiqqanimiz dramalarda qo'llanilgan iboralarning ko'pchilik qismi frazeologik lug'atda uchramaydi. Bunga sabab ularning ba'zilar nutqimizda juda kam o'rinlarda uchrasa, ba'zilar umuman uchramaydi. Masalan, "Arslon" dramasida muallif bir o'rinda shunday ibora qo'llagan:

"Boy (yana qattiq kulib) Qarg'a qo'ndirg'ali butoq topolmaysan, sen xotunni qanday qilib olasan. Xotun olmoq uchun pul kerak, nima bilan to'y qilasan?"³¹

Bu o'rinda qo'llanilgan "*qarg'a qo'ndirg'ali butoq topolmaslik*" drama qahramonining og'ir moddiy ahvolini anglatish uchun qollanilgan bo'lib, bugungi kunda iste'molda uchramaydi. Bu o'rinda aynan qarg'a obrazining o'zi ham qiyin va og'ir vaziyat ma'nosini kuchaytirish uchun vosita bo'lib kelmoqda.

Oqsoqol. Ko'b uzatma so'zni(qichqiribroq), o'n besh kundan keyin qanday qilib berasan.³²

Bu o'rinda qo'llanilgan "so'zni uzatmoq" iborasi "gapni cho'zmoq" iborasiga sinonim bo'lib, ko'p gapirish ma'nosini bildirib keladi. Bu ibora ham bugungi kunda ishlatilmaydi. Shu boisdan o'zbek tilining izohli frazeologik lug'atiga kiritilmagan. Bizningcha, bu iboradagi "uzatmoq" so'zi "uzaytmoq" "uzaytirmoq" so'zining qisqargan shakli.

Azroil

Tangrim, nadir buning buncha ozg'ani

Imonlarning tamalini qozg'ani³³

³⁰ Ефимов А.И. Стилистика художественной речи.- М., 1957. -С. 184.

³¹ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. III жилд. -Т.: Маънавият, 2003. 100-bet

³² Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. III жилд. -Т.: Маънавият, 2003. 106106-bet

“Shaytonning tangriga isyoni” dramasidan olingan ushbu parchada keltirilgan “*imonning tamalini qozmoq*” birikmasida “tamalini qozmoq” “yo‘q qilmoq” yoki “yo‘q qilishga kirishmoq” ma’nosida qo‘llanilib shaytonning Tangriga qilgan isyoniga nisbatan Azroilning tilidan qo‘llanilgan. Bugungi kunda tilda mavjud bo‘lmagan bu frazemaning ma’nosi nutq vaziyatidan anglashilib turibdi.

Karimbaxshxon. Sen ko‘p mantiq sotasen, Sarvarxon.(Zulayhoga) Hayda qizim, bunga choy ber.³⁴

“Chin sevish” dramasidan olingan yuqorida keltirilgan parchada “mantiq sotmoq” iborasi nutqiy faoliyatni bildiruvchi fe‘l frazema bo‘lib, keraksiz va ahamiyatsiz o‘rinda ko‘p gapirmoq ma’nosida qo‘llanilgan. Bugungi kunda *safsata sotmoq* varianti ko‘proq ishlatiladi. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atiga kiritilmagan.

Yuqoridagi aytganlarimizdan tashqari, dramalarda iboralarning shakl va munosabatiga ko‘ra ham bir necha turlari ishtirok etgan. Fikrimizning isboti tariqasida ularning ba’zilarini keltiramiz.

Nodirshoh. O‘lkangizning butun ishlarini boshqarib turmoqni Hakimbiy otaliqqa topshirdim. (Otaliq turib,qulluq qilar).³⁵ Barchangiz shuning so‘zidan chiqmangiz.

Bu o‘rinda keltirilgan *so‘zidan chiqmoq* iborasi shakldosh bo‘lib ikki xil ma’noda qo‘llaniladi. 1. Ahdida turmoq, va’dasini bajarmoq. 2. Aytganini, buyrug‘ini bajarmaslik (kimningdir). Ayni keltirilgan parchada 2- ma’nosida qo‘llanilgan.

Mulla Nazir. Hammasi ham noliydi, ammo bizga o‘xshab,nima qilishni bilmay hayron... sabr kosasi to‘lgan.³⁶

Nozim. Pichoq borib suyakka tegdi. Nima qilsang,qil³⁷

³³ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. I жилд. –Т.: Маънавият,2003.224-bet

³⁴ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. I жилд. –Т.: Маънавият,2003.224-bet

³⁵ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. I жилд. –Т.: Маънавият,2003.200-bet

³⁶ Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. I жилд. –Т.: Маънавият,2003.169-bet

Bu ikki parcha “Vose’ qo‘zg‘oloni” dramasidan olingan. Sinonim frazemalar sanaladi. *Pichoq borib suyakka yetdi va Sabr kosasi to‘ldi* iboralari Ortiq chidab bo‘lmaydi va Toqati toq bo‘ldi ma’nolarida bir-biriga yaqin bo‘lib, ularni sinonim iboralar deyish mumkin.

Fitrat davri tili har jihatdan hozirgi o‘zbek adabiy tilidan birmuncha farq qiladi. Bu ko‘proq leksika va morfologiyada namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, dramalarda qo‘llangan ba’zi iboralarda o‘sha davr tiliga xos so‘zlar mavjud bo‘lib, ibora semantikasini tahlil qilish uning tarkibida mavjud o‘sha tarixiy so‘zning ham ma’nosini bilishni taqozo etadi.

Toji og‘ir bir yuk edi boshimga,

*Ibodati og‘u qotdi oshimg‘a.*³⁸

“Shaytonning tangriga isyoni” dramasidan olingan parchada qo‘llangan “oshiga og‘u qotmoq” iborasidagi “og‘u” hozirgi tilimizda zahar ma’nosida, “qotmoq” so‘zi esa “bermoq”, “aralashtirmoq” tarzida mavjud. Demak, hozirgi tilimizga “oshiga zahar solmoq” tarzida “o‘girsak” pand bermoq, yomonlik qilmoq ma’nolarini anglatadi.

Masalan,” Hind ixtilolchilari” dramasida emloq so‘ziga duch kelamiz.

Bu so‘z kasalxona so‘zining o‘rnida ishlatilgan bo‘lib, bu yerda “em” –davo, shifo so‘zining eski shakli, -loq esa o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimchadir. Bundan kelib chiqqan holda, bu so‘zni hozirgi kasalxona so‘ining eski shakli, degan xulosaga keldik.

Shuningdek, muallif xalq maqollari, matal va boshqa turg‘un birikmalardan samarali va mahorat bilan foydalanganki, ular dramalarning badiiy qimmatini ta’min etish bilan birga milliy tilning jozibasi va ta’sirchanligini ham o‘ziga namoyon qilgan. *Boy: Bularning shumlig‘i bilan boshimizga bir balo kelmasa yaxshi bo‘lar edi. Birniki mingga, mingniki olamg‘a bo‘lmag‘ay.*³⁹ Shu o‘rinda keltirilgan xalq maqoli ham “Arslon” dramasi qahramoni Mansurboyning tilidan

³⁷ Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. III жилд. –Т.: Маънавият, 2003, .172-bet

³⁸ Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. I жилд. –Т.: Маънавият, 2003, 231-bet

³⁹ Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. III жилд. –Т.: Маънавият 2003. 96-bet

aytilgan bo‘lib, bir kishining qilgan noma’qul ishidan ko‘pchilik jabr ko‘rishi mumkin, degan ma’noda ishlatilgan.

*Amir ham go‘yoki bir zaharli ilon, qonxo‘rligini tark etolmaydi. “O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas” deganini eshitmaganmisiz.*⁴⁰ Vose’ qo‘zg‘olonida bosh qahramon Vose’ tilidan qo‘llangan, ushbu maqol Buxoro amiriga nisbatan aytilgan bo‘lib, mazmuni xalqdan turli soliqlar yig‘ish hech qachon to‘xtamaydi. Zero, amir va amaldorlar bundan voz kecha olmaydilar, chunki doimiy ravishda bu jarayon bo‘lib kelganligining ma’nosi ifoda etilgan.

O‘ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan. Bu maqol ham o‘z o‘rnida topib qo‘llanilgan bo‘lib, “Vose qo‘zg‘oloni” dramasi qahramoqlaridan biri, amaldor Tosh yasovul tilidan qo‘zg‘olon boshlig‘i Vose’da aytilgan bo‘lib, har qanday holatda ham arbob, ya’ni amaldor haqdir, mansabdor har qanday yo‘l(bob) bilan ham ustun kela oladi, degan ma’noda qo‘llanilgan. Aynan shu maqolning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi asarda tasvir etilgan mazmunning ta’sirchanligini ta’minlagan.

*“Boshga tushganni ko‘z tortar” – deganlar-ku, qani ko‘raylik-chi!*⁴¹ Shu o‘rinda qo‘llangan ibora “Boshga tushganni ko‘z ko‘rar” tarzida iste’molimizda mavjud bo‘lib, hayotda tavakkal qilish, ya’ni insonning ruhiyatiga ta’sir qilishga qarshi bir xalqimizning topgan so‘z topilmasi hisoblanadi. Inson hayotida sodir bo‘layotgan yoki bo‘lishi kutilgan keskin burilish va qaltis vaziyatlar uchun qayg‘urib yurmasligi kerak. Taqdirda yozilgani bo‘ladi, degan mazmunda ishlatiladi. Bu sabr-qanoatli va sobitqadam xalqimizning o‘ziga xos xususiyatini namoyon etib turuvchi birikmalardan biridir.

Dilnavoz: *Chumchuqdan qo‘rqqa tariq ekmas.* O‘limdan qo‘rqsa edim, uch oy sen bilan tanishmas edim.

Ushbu maqol kishini dadillikka, har bir ishga jasorat bilan yondashishga undaydi. Aynan o‘zbek xalqiga xos dadillik, tavakkalchilik singari xususiyatlar

⁴⁰Фитрат Абдурауф Танланга асарлар. I жилд. -Т.: Маънавият 2003. 170-bet

⁴¹ Фитрат Абдурауф. Танланга асарлар. III жилд -Т.: Маънавият 2003. 181-bet

majoz vositasida badiiyat bilan ifoda etilgan. Majozni yuzaga keltirishda chumchuq va tariq obrazlarining qo'llanilishi ham chumchuq xalq ozaki ijodimizning deyarli har bir janrida uchraydigan obrazdir. Tariq makkajo'huri o'simligining urugi bolib xalqimiz dehqonchikigiga aloqador hisoblanadi.

To'g'risini aytganda, yana o'zimiz tinch. Xudo soyasi-da bo'lmaymiz, o'ldurulmaymiz-da. *Och qornim, tinch qulog'im.*⁴²

Ko'rinib turganidek, dramalarda muallif dono xalqimiz og'zaki ijodiga tegishli maqollardan unumli foydalana olgan. Bu esa sarning badiiy qimmatini ta'minlash bilan birga, xalq og'zaki ijodining betakror qirralarini ochib bergan,

Fitrat dramalarida qahramonlar nutqida matallardan ham unumli foydalanganki, ular qahramon xarakterining jonli, tasvirning obrazli hamda muhitning, tasvirlanayotgan vaziyatning hayotiy va haqqoniy bo'lishiga ko'mak bergan.

Sichqonning olimi- mushukning to'yi. Biz kabi oppoq yurakli, toza yigitlar to'rt tomondan qisilib, ezilib turamiz. Mana bular ot chopib yuralar. Parvolariga kelmaydur.⁴³ Arslon dramasidan olingan bu parchadagi maqol qahramon holati va vaziyatini yorqin aks ettirishda obrazli vosita bolib xizmat qilgan.

Shunday bo'lsa sen menga: “*Osmonni otib yubor, tushib yerga yopishsin deysan*”. O'zing ayt shu mening qo'limdan keladimi?⁴⁴

Bu birikma hozirgi iste'molimizda biroz o'zgacha shaklda mavjud .

⁴² Фитрат Абдурауф. Танланга асарлар. III жилд Т.: Маънавият 2003, 181-bet

⁴³ Osha manba. 117-bet

⁴⁴ O'sha manba. 171-bet

I bob yuzasidan xulosalar

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda keltirganimiz 1-bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

Fitrat tili davr jihatidan nisbatan ancha soddaligi tushunarlilik va ravon ekanligi bilan ajralib turadi.

- Adib o'z dramalarida frazemalardan unumli va mohirona foydalangan.

–Biz o'rganish obektiga olganimiz “Abulfayzxon”, “Chin sevish”,

- “Vose' qo'zg'oloni”, “Hind ixtilolchilari”, “Arslon” dramalarida ishtirok etgan frazemalarning umumiy miqdori taxminan 150 dan oshadi.

- Qahramonlar va muallif nutqida qo'llanilgan frazemalar dramalar tasvirning jonlilik, ifodaning xalqchilligi va badiiyatning yuqoriligini ta'min etgan;

- Fitrat dramalaridagi iboralar semantik jihatdan tasnif qilinganda harakat- holatni bildiruvchi frazemalar aksariyat qismni tashkil etadi.

- Fe'l-atvor bildiruvchi frazemalar nisbatan kamchilikni tashkil qilsada, o'z o'rnida drama qahramonlarining xarakter-xususiyatini ochib berishda ahamiyat kasb etgan;

- Ruhiy holat bildiruvchi iboralar ham qahramon ichki kechinmalarini, ham ruhiy holat ta'siridag kayfiyat va o'zgarishlarni ifodalab bergan;

- dramalar tarkibida kuzatilgan iboralar harakat- holatni, ruhiy holatni, fe'l-atvorni ifodalashi bilan birga narsa buyumlarning xususiyatini ifodalash uchun ham qo'llanilgan.

- Fitrat dramalarida qo'llangan frazemalarning ayrimlari iste'molda faol, ba'zilar kam uchraydi, ba'zilar o'zgarishga uchragan, ayrimlari bugungi kunda uchramaydi;

- Adib ayrim o'rinlarda umumtil frazeologizmlaridan ijodiy-individual foydalangan;

- Abdurauf Fitrat dramalarida iboralardan tashqari maqol, matal va xalq tilida mavjud ko`chma ma`noda qo`llaniluvchi piching, qochiriqlardan ham unumli foydalanganki, bular ham tasvirning jonli va haqqoniyligini ta`min etgan.

II BOB. FITRAT DRAMALARIDAGI FRAZEMALARNING USLUBIY-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1. Fitrat dramalaridagi frazemalarning uslubiy-semantik xususiyatlari

Frazemalar semantikasi ko'chma ma'noga asoslanadi. Ma'lumki, so'z ma'nosi ko'chishi natijasida o'z va ko'chma ma'no hosil bo'ladi. So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi *o'z ma'no* ("denotativ", "bosh", "atash" ma'nosi) sanaladi. So'zning nutqdagi boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qilinadigan yondosh ma'nosi *ko'chma ma'no (konnotativ ma'no)* hisoblanadi. So'z ma'nolarining kengayishi, o'zgarishi, bir so'zning kontekstga qarab bir necha ma'no ifodalashi polisemiya deyiladi. Polisemiya ommabop va adabiy uslub uchun vosita bo'ladi va lug'atni ham uslubni ham boyitadi. *Ishning ko'zini biladi, ko'z ilg'amas, qaro ko'zim, ko'z-ko'z qilmoq, ko'z ostiga olish, ko'zmunchoq, ko'zimning nuri, ko'z boylog'ichlar* va boshqa frazemalarda ko'z so'zi turli ma'noda qo'llangan. *Qo'l, til, yurak, ona, bosh* kabi so'zlar ham ko'p ma'nolarni ifodalashi mumkin. Ma'nosi ko'chgan so'z ikkinchi bir so'z bilan yaxlit qo'llansa, har ikkisinining o'rniga bir so'z (sinonim) qo'yish mumkin. Masalan: *ovi yurgan* - omadli; *dili pora* - xafa.

So'z ma'nosi ma'lum xususiyatlarga ko'ra ko'chadi. Lug'aviy ma'noning asosiy taraqqiyot yo'llari (ko'chish usullari) quyidagicha: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (vazifadoshlik), kinoya.

Metafora (grekcha «ko'chirish») - bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir. *Metafora* - "o'xshashlik" asosidagi ma'no ko'chishi: *oltin kuz, kumush choyshab, fan cho'qqilari, litsey qaldirg'ochlari. Po'lat qilichingni ko'rganman o'tda. Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.* Metaforalarga juda yaqin bir vosita-o'xshatishlar bo'lib, ular yordamida shaxs-pradmetlar bir-biriga o'xshatiladi, qiyos qilinadi. Unda *-dek, -day, go'yo, yanglig', singari, xuddi* (va b.) kabi shakl va so'zlardan ham foydalaniladi: *Bahor kelinchakdek yasanib keldi. Ulug'bek* - misoli

oftob. Adashgan it kabi Furqat Qayon borgum bilolmasman. Gʻoz singari qoʻnar koʻllarda.

Metonimiya grekcha «qayta nomlash» demakdir. Narsa va hodisalar oʻrtasida makon va zamondagi oʻzaro aloqadorlik asosida biri nomining ikkinchisiga koʻchishi metonimiya hisoblanadi. *Metonimiya* - “aloqadorlik” asosidagi maʼno koʻchishidir: *Qishloq chetida samovar ochildi* (samovar-choyxona); *Osmonga tikildi million juft koʻzlar* (koʻz-odam); *Fuzuliyni oldim qoʻlimga* (Fuzuliyni-kitobini). *Osmonga tikilar million juft koʻzlar..* . (U) *Osmon fonarini ham yoqdi shu onda. Zal oyoqqa turdi. Auditoriya sukutda.*

Sinekdoxa grekcha «birgalikda angash» soʻzidan olingan boʻlib, boʻlak orqali butunni yoki butun orqali boʻlakni ifodalashni bildiradi. *Sinekdoxa* - butunning nomi bilan qismini, qismning nomi bilan butunni atash. Masalan: *Besh qoʻl barobar emas* (qoʻl ”- “barmoq”); *Oʻn qoʻli hunar* (qoʻl –“barmoq”). *Besh qoʻlini ogʻziga tiqdi* (qoʻl - “barmoq); *Shu bitta tuyoq bilan olti bolani boqdim* (tuyoq- ”sigir”); *Tirnoqqa zor oʻtdi* (tirnoq-“farzand”). *Besh qoʻl barobar emas. Dunyoda oʻzimizdan keyin qoldiradigan tuyogʻimiz ... faqat shul Otabekdir, deb yozdi Yusufbek Hoji.*

Vazifadoshlik (*funksiyadoshlik*) - vazifa asosida maʼno koʻchishi. Narsa va hodisalar oʻrtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosidagi maʼno koʻchishi deyiladi: *oʻq kotib, pero, qalam, qanot, chiroq* soʻzlarida ham vazifaga koʻra maʼno koʻchishi roʻy bergan.

Bulardan metafora frazemalarda koʻp kuzatiladi. Metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik nisbatan kam boʻlsa-da, uchraydi.

Til bu eng muhim aloqa vositasi. Til bir kishi tomonidan emas, balki, kishilik jamiyati tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Suningdek, u ayrim shaxsga emas, balki jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi. Bundan chiqadiki, tilda mana shu tilning oʻzi mansub boʻlgan jamiyatnig, umuman, millatning ijtimoiy va madaniy hayoti, oʻziga xos qiyofasi aks etib turadi. Til bu millatning koʻzgusidir. “Har bir millatning dunyoda borligʻini

korsatuvchi o'ynayinjahoni uning tili va adabiyotidir"-degan edi buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy. Haqiqatdan ham, har bir xalqning, millatning borligi va shuning bilan birga ma'naviy qiyofasi uning tili va adabiyotida namoyon bo'ladi. Shunday ekan til va adabiyot bir- birini taqozo etadigan tushunchalardir. Zero, tilning jozibasi, imkoniyatlari, so'z boyligi va butun go'zalliklari badiiy asarlarda yaqqol ko'rinib turadi.

2.2.Fitrat dramalaridagi frazemalarning lingvokulturologik xususiyatlari

Til o'zi mansub bo'lgan millatning madaniy olamini, xarakter-xususiyatini ham namoyon etib turuvchi bir omil ekanligini yuqorida tilga olgan edik. Til va madaniyat orasidagi ayni shu munosabatni tekshirib tadqiq etish ham bugungi kun tilshunosligining muhim masalalaridan sanaladi. Ma'lum millat vakillariga yoxud jamiyat a'zolariga xos bo'lgan urf-odat, rasm-rusum, xarakter-xususiyat hamda madaniyati bilan bogliq boshqa bir jihatlarning til birliklarida sezilib turishi kabi masalarni lingvokulturologiya tekshiradi. Lingvokulturologiya bu – tilshunoslikning bir sohasi. Manbalarda Maslova fan sifatida e'tirof etiladi.⁴⁵ Lingvokulturologiya XIX asrning 90-yillarida vujudga kelgan. Lingvokulturologiya ma'lum millatga oid o'ziga xos madaniyatning ,umumun olganda, xos xususiyatlarning tilda aks etishidir.

Lingvokulturologiya alohida ijtimoiy guruhlar, xalqlar yoki madaniy aloqalar davrini til bilan bog'liq holda o'rganadi.

Har bir millatning o'zligini namoyon etadigan, yuksalish jarayoni va mavjudligini bildirib turuvchi omil bu uning milliy tilidir. Kasevichning fikriga qaraganda, til bu millatning oynasidir.

Lingvokulturologik ahamiyat kasb eta oluvchi o'ziga xos birliklardan biri bu frazemalardir. Frazemalar turg'un birikmalar hisoblanib, ularda ma'lum bir xalqning o'ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo'ladi. Frazeologizmlar tarkibidagi biror so'zi bilan yoxud anglatayotgan ma'nosi bilan o'zi mavjud til tegishli bolgan millat haqida milly-madaniy axborot beradi.

Xalq tilida mavjud iboralar shu xalqning fe'l-atvorini, urf-odatlarini, mentaliteti hamda o'ziga xos tabiati, xarakter, xususiyatlarini ham o'zida aks ettirib turadi.

⁴⁵ Маслова О. Лингвокултология.-М.,2010.

Xalq maqollari shu xalqning ma'naviyatini, madaniyatini, asriy tajribalari asosida kelib chiqargan xulosalarini lo'nda va ixcham holda ifoda etadi. Shunday xalq maqollari ham borki, ularda aynan mana shu xalqning ruhi aynan seziladi. Undagi obrazli ifoda, xulosa yoki fikr o'zi mansub bo'lgan xalqqa aynan mos bo'lib, uni bevosita tilda aks etgan shu xalqning tilda aks etgan yuzi deyish ham mumkin.

O'zbek xalqi azaldan mehnatsevar, matonatli, tanti va samimiy, saxiy va halol, bolajon va mehmondo'stlik va iymonlilik singari ko'plab ezgu fazilatlarni o'z ma'naviyatida jamlagan xalq. Bu haqida yurtboshimiz shunday ta'kidlaganlar: "Shuni mamnuniyat qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan."⁴⁶ Mana shunday ezgu va insoniy fazilatlar xalqimiz og'zaki ijodi namunalarida, shuningdek, tilda mavjud frazemalar, tasviriy ifodalar, ko'chma ma'noda qo'llaniluvchi so'zlar va boshqa birliklarda ham namoyon boladi. O'zbek xalq maqollarida ham shundaylari talaygina.

Masalan, "Mehnatning tagi rohat" maqolini olaylik. Ushbu maqolda ham mehnatkash xalqimizning tugal xulosasi, ya'ni inson yaxshi, farovon hayotga mehnat bilan erishadi, degan fikri o'z aksini topgan. Xalqning asriy tajribalari asosida yaratilgan bunday maqollar o'zbek xalqining xarakter-xususiyati va fe'l-atvorini yaqqol ko'rsatadi. Shunday maqollar singari frazemalar ham borki, ular ham aynan o'zbek xalqining jonli tilida mavjud bo'lib, xalqimiz mentaliteti va o'ziga xosligini namoyon qilib turadi. "O'zga yurtida sultom bolguncha, oz yurtida cho'pon bo'l". Ayni shu maqolning o'zida ham xalqimizga xos ona vatanga sadoqat, tug'ilib osgan joyga muhabbat kabi tushunchalar boy korsatib turibdi. "Mehmon otangday ulug'" uchgina so'zdan iborat ushbu maqolda mehmondost va tanti o'zbek butun samimiyligi oqko'ngilligi bilan o'zini namoyon etib turibdi. Bunday maqollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

⁴⁶ Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. 7-bet

O'zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasi lingvokulturologik xususiyatga ega. Chunki Masalan, qo'li ochiq frazema saxiy ma'nosida qo'llanuvchi belgi bildiruvchi frazema bo'lib, aynan tanti va mehmondo'st, hojatbaror xalqimizning vakillariga nisbatan ishlatiladi. Yoxud "Do'ppisini osmonga otmoq"⁴⁷ iborasini oladigan bo'lsak, uning aytilishi va eshutilishiyoq ko'z o'ngimizda o'zbek xalqini va uning samimiy, sodda, tanti bir vakilining xushchaqchoq qiyofasini gavdalantiradi. Sh. Rahmatullayevning izohli frazeologik lug'atida "Juda xursand bo'lmoq", "Quvonmoq" deya izohlangan bu iborada o'zbek milliy bosh kiyimi - do'ppi so'zining kelishi frazemada, ya'ni tilning bitta birligida millatga xos bir omil o'zini sezdirib turadi.

"Kuragi yer ko'rmagan" iborasi ham kurashchi polvonlarga nisbatan ishlatiladigan bo'lib, bu ham lingvokulturologik ahamiyatga ega iboralardan hisoblanadi. Shuningdek, "Qo'ygani joy topolmadi" iborasining qo'llanishi ham xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, o'zgani hurmat-izzat qilishsamimiylik va tantilik singari insoniy fazilatlarni harakat holatda borttirib korsatib turadi. Bu kabi xalqimizjonli tilida mavjud bo'lgan ko'plab iboralar, frazemalar o'zbek xalqiga xos bo'lgan madaniy olamni lisonda namoyon etadi

"Qo'y o'gzidan cho'p olmagan" – nihoyat darajada beozor, mo'min ⁴⁸ iborasi fe'l-atvor bildiruvchi frazema bo'lib, yuvosh, xushfe'l insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu frazemaning ham lingvokulturologik ahamiyati mavjud. Bunda ham shaklan, ham mazmunan xalqimiz madaniyati va ma'naviyatiga xos belgilar mavjud. Xalqimiz turmush tarzida azaldan chorvadorlik ishi muhim o'rin tutgan. Iborada aynan yuvosh jonivor qo'y obrazining keltirilganligi ham mana shu omilga bog'liq. Cho'p obrazi ham xalq og'zaki ijodi namunalarida juda ko'p uchraydigan predmet sanaladi.

"Childirmasiga oyoq tashlamoq" degan ibora ham borki, bu ibora "nog'arasiga o'ynamoq" frazemasiga sinonim bo'ladi. Yana uning o'rnida

⁴⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1978. 27- bet

⁴⁸ O'sha manba. 295-bet

“Yo‘rig‘iga yo‘rg‘alamoq” iborasini ham qo‘llash mumkin, bularning hammasi aytganlarini so‘zsiz bajarishni bildiradi. Kimningdir izmi, yo‘l-yo‘rig‘i bilan ish ko‘roshi ma’nosini anglatadi.

“Senga kim qo‘yibdi birovning chirmandasiga o‘ynashni ⁴⁹” . Bu o‘rinda childirma degan cholg‘u asbobi ham frazemaning somasi hisoblanib, xalqimiz san’atiga xos bo‘lgan cholg‘u asbobi bo‘lib, frazemaning lingvokulturologik xususiyatini to‘la aks ettirgan.

“Terisiga somon tiqqan” iborasi ham azaldan dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullangan xalqimizning turmush tarziga bevosita xosdir.

Qattiq azoblamoq, qiynamoq ma’nosida qo‘llanuvchi bu iborada aynan somon detalining ishtirok etishi iboraning xalqchil ruhini namoyon qiladi.

“Og‘ziga tolqon solmoq” – mutlaqo gapirmaslik, “To‘ydan oldin nog‘ora chalmoq” – bajarilmagan holat yoki harakatni ovoza qilmoq, “Chuchvarani xom sanamoq” – xato o‘ylamoq, “Osmondan chalpak kutmoq” – beg‘am bo‘lmoq, dangasalik qilmoq, “Qirq marta o‘lchab kesmoq” - o‘ylab ish qilmoq, “Qora terga botmoq” – “haddan tashqari zo‘r berish natijasida mo‘l- ko‘l terlamoq”⁵⁰, “Sufra qoqdi” – eng so‘nggi, “Ko‘ngliga zig‘ir yog‘day urmoq” – bezor bo‘lmoq, “Kindigi kesilgan” – tug‘ilgan, “Kindik qoni tomgan” – tug‘ilgan, “Ikki dunyoda ham” – hech qachon, “Izzat nafsiga tegmoq” – kamsitadigan so‘z aytmoq, “To‘nini teskari kiymoq” – fikridan qaytmoq, “Zuvalasi pishiq” – a‘zoyi badani chiniqqan, “Do‘ppisi yarimta” – beparvo, beg‘am, “do‘ppisi tor kelmoq” – ilijsiz, imkonsiz qolmoq. Bunday iboralarng ba‘zilari tarkibidagi so‘zlari bilan, ba‘zilari anglatayotgan ma’nosi bilan ham lingvokulturologik xususiyatga ega bo‘lgan frazemalarga yaqqol misol bo‘ladi. Bular tarkibidagi so‘z va uning ma’nosi jihatidan ham aynan xalqimiz madaniyati va turmush tarziga xos, xalqchil bir tushunchalarni o‘zida ifodalagan. Bunday iboralar tilimizda juda ko‘plab uchraganligi holida, ularni og‘zaki va yozma qo‘llanishi nutqning jozibasini

⁵⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.- Т.: Ўқитувчи, 1978. 291-bet

bo'yoqdor va obrazlilikini ta'min etadi. Iboralar ko'pincha so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xos bo'lib, kinoya va qochiriqlarga boy bo'ladi. Ko'chma ma'noda keluvchi bu birliklarda yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zi tegishli bo'lgan til birliklariga oid xususiyatlar madaniy jihatdan ko'rinib turadi. Iboralar nafaqat xalq jonli tilida ishlatiladi, balki badiiy asarlarda ham muallif va qahramonlar tilidan qo'llaniladi. Bu esa muallif badiiy niyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu jarayon badiiy asarlar paydo bo'lgan davrlardanoq mavjud bo'lgan. "Frazeologizm ifoda vositasi sifatida qaranganda Arastuga borib taqaladi."⁵¹

Yozuvchi tili va frazeologiyasiga bag'ishlangan ishlarda yangidan ijod qilingan ayrim iboralar keltirilsa ham, lekin yozuvchining ibora yaratishdagi texnikasi tilda frazeologik iboralarning vujudga kelish yo'llari, badiiy-estetik va stilistil qiymati maxsus tekshirilmaydi. Vaholanki, busiz yozuvchi tili va uslubining o'ziga xos xususiyatlarini to'la ochib berish mumkin emas.

Tilda, shu jumladan, badiiy adabiyot tilida frazeologik iboralarning vujudga kelishini to'g'ri tushunish uchun bir-biridan keskin farqlanuvchi ikki hodisani alihida-alohida tekshirib ko'rish lozim. Ulardan biri erkin so'z birikmalarining frazeologik iboralar sifatida turg'unlashuvini keltirib chiqaradigan ichki til qonuniyatlari bo'lsa, ikkinchisi, tilga aloqasi bo'lmagan har xil ekstralingvistik faktorlarning ta'siridir.

Frazeologik birliklarning paydo bo'lishini o'rganishda deb yozadi A.P.Xazanovich, ularni keltirib chiqaradigan til vositalari, til protsessorlari, iboralarning shakllanish texnikasi) bilan bir qatorda sirtqi hodisalarni ya'ni frazeologik birlik vujudga keladigan sohalar: kasb-hunar va ijtimoiy muhitni turlicha hayot sharoitlarini ham tekshirish lozim. Chunki har xil tipdagi frazeologik birliklarning shakllanishida bu ikki faktorning salmogi turlichadir.

Masalaning bu taxlitda qo'yilishi ayrim iboralarning vujudga kelishida ishtirok etmas ekan,degan fikrni anglatmaydi,albatta. Har qanday iboraning, frazeologik birlikning vujudga kelishida sirtqi omilning ta'siri bo'ladi. Bundan

⁵¹ F. de Sossyur. Umumiy tilshunoslik kursi. (Fransuz tilidan prof. I. K. Mirzayev tarjimasini)

kelib chiqadiki, iboraning vujudga kelishida tashqi muhit omil boladi va ayni shu muhit yoki sharoit xususiyati iborada aks etadi. Badiiy asarda frazemaning qo'llanilishi esa tasvir etilayotgan muhitning va obrazlarning haqqoniy ifodasini ta'minlaydi. Shuningdek, asarda aks etayotgan qahramon hamda u mansub bo'lgan jamiyat, umuman, millatning madaniy hayotini yorqin va obrazli chizishiga muhim vosita bo'ladi. Bu esa iboralar lingvokulturologik ahamiyatining badiiy asarda yuzaga chiqishidir.

Fitrat qalamiga mansub dramalarda ham iboralar lingvokulturologik ahamiyat kasb etgan bo'lib, bular orqali xalqimiz madaniyatiga oid tushunchlar o'z ifodasini topgan. Zero, har bir iborada ma'lum bir millat suvrati chiziladi. Jumladan, "Arslon" dramasida lingvokulturologik ahamiyat kasb etuvchi ko'plab frazemalarga duch kelishimiz mumkin.

Norxola. Kel, Oynuqsa, tuzukligi bormi? (Kasalning talvasasiga qarab qolg'andan keyin og'ziga suv tomizadir) Bechora Tursun opamiz rahmatig'a qovushadir chog'i. Ushbu o'rinda qo'llangan "rahmatig'a qovushmoq" iborasi "o'lmoq" fe'li o'rnida ishlatilgan bo'lib, xalqimizga xos bo'lgan e'tiqodi butunlik, xudojo'ylik xislatlarini namoyon qilish bilan birga, qo'pol eshitiluvchi, aytilganda inson ruhiyatiga yomon ta'sir qiluvchi so'zlarni aytmalik, ularning o'rnida taskin beruvchi so'zlarni aytish kabi odatlarni ham ko'rsatib turibdi. Chunki inson "ko'ngliga qarash", "yuz-ko'zini o'ylab" ish tutish, xushmuomalalik aynan xalqimizga xos fazilatlardandir.

"Bek yigit sening boshingga davlat qushi qo'ngan"⁵². "boshiga davlat qushi qo'nishi" iborasi omadi kelmoq, baxti chopmoq iboralariga sinonim bo'lib, "davlat qushi" haqidagi rivoyat va afsonalar ham mavjud. Humo qushi afsonalarda o'zbek xalqi uchun muqaddas hisoblanib, baxt va omad ramzi sanaladi. Mana shunga ishora tarzida bu iborada davlat qushi obrazi ramziy ma'no tashiydi.

Xalqimizda "Tuzini yegan" degan ibora mavjud. Uning zmirida yaxshilik ko'rganlik mazmuni yotadi. Bu ibora xalq maqollarida ham uchraydi. Jumladan,

⁵²Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2003. 194-bet

“Bir kun tuz totgan joyingga qirq kun salom berib o‘t”. Bu maqoldagi tuz totish birikmasi bir qancha ma’nolarni yuzaga chiqargan: Yaxshilik ko‘rgan kishingga doim hurmatda bo‘.Yana shunday ibora ham bor: “tuzini yeb tuzlig‘iga tupurmoq”. Bu ibora yaxshilik ko‘rib, yaxshiligini unutgan, vijdotsiz insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu ibora salbiy ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu iborada ifoda etilgan harakat-holat xalqimiz ma’naviyatiga yot bo‘lib, frazema mazmunidan kelib chiquvchi harakat- holat qattiq qoralanadi. Xuddi shuningdek, biz o‘rganayotgan, bevosita diqqatimiz qaratilgan Fitrat dramalarida ham bu ibora ishtirok etgan o‘rinlar uchraydi.

Imom. Aylanay, qo‘rqmayman-u, biroq ko‘rib qolsalar, tuzlarini ko‘p yeganmiz, yaxshi bo‘lmaydir.

Zaynab. Tinch o‘tira bering.kelmaydilar-da,ko‘rmaydilar-da!

Imom. Hay, sadag`angiz ketay,berirak kelsangizchi, juda uzoq o`tiribsiz-ku.(Zaynab nozlanib imomga yaqinroq o`tiradir.) Bay, bay, bay bu kun judayam ofat bo`libsiz. Xudo yomon ko`zdan asrasin.(duo o`qib dam soladir.)⁵³

“Arslon”dramasidan olingan ushbu parchada “tuzini yemoq” iborasidan tashqari “sadag`angiz ketay” va shuningdek, “yomon ko`zdan asrasin “ iboralari ham lingvokulturologik ma`no tashuvchi frazemalardir. Ayni “yomon ko`zdan asrasin “ birligi xalqimizda mavjud bo‘lgan “ko`z tegishi” tushunchasi bilan bog‘liq desak, xato bo‘lmaydi.

“Ter to`kamiz ishlaymizda, yashaymiz”. „Arslon” dramasidan olingan ushbu parchada ter to`kmoq iborasi astoydil mehnat qilish ma`nosida qo`llaniladi. Peshona teri bilan halol mehnat evaziga turmush o`tkazish xalqimizga oid bir o`ziga xoslikdir. Azaldan mehnatkash va jonkuyar xalqimiz tinimsiz harakat va halol mehnat bilan kun kechirib kelgan. Mana shu halol mehnatdan topilgan luqma bilan farzandlarini voyaga yetkazgan. Umuman olganda ter to`kmoq iborasi ham o`zbek xalqiga xos bir xususiyatni lisonda ifoda etgan desak xato bolmaydi.

Zolimlar dastidan ming dod

⁵³ O‘sha manba.153-bet

Bo`tadek bo`zlar gulizor⁵⁴ Bu o`rinda „bo`tadek bo`zlamoq” iborasi keltirilgan bo`lib ,uning ham lingvokulturologik xususiyatini aytib o`tishni joiz topdik. Bo`ta bu tuyaning bolasi ma`nosini anglatadi. Ma`lumki tuya ham xalqimiz turmush tarzida alohida o`ringa ega bo`lgan jonivor hisoblanib undan transport vositasi sifatida foydalanishgan. Xalqlarni o`zaro aloqalarida katta foyda bergan. Olis safarlarga yo`lga chiqishganda ,uning ustiga yuk ortilgan . Mana shunday chog`da tuyalarning emizikli bolalari ya`ni bo`taloqlari qorin g`amida onasining orqasidan zor bo`lib qarab borishgan. Mana shu holatga nisbatan xalq tilida “bo`tadek bo`zlamoq” iborasi vujudga kelgan. Bu ibora intizor bo`lib yo`liga ko`z tutish ma`nosida qo`llaniladi. Aynan Vose’ qozg`oloni dramasida ham qo`zg`alon boshlig`i Vose’ning qizi Gulzorga nisbatan ishlatilgan. Otasi amir odamlari tomonidan qatl etilganda otasini qidirib borgan qiz zor yig`lab turgandagi ruhiy holat „ bo`tadek bo`zlamoq” iborasi orqali ifoda etilgan. Bunda ham xalqimiz turmush tarzida chorvachilik , umuman tuyaning ham o`rni mavjud bo`lgani haqida xabar beradi. Miroxurboshi Saiddan qay biring Vose, Vose. Men. Miroxurboshi . Nega nonko`rlik qilding? Ma`lumki non va tuz xalqimiz qadriyatlarida muqaddas hisoblanadi. Non rizq va ro`zimizdir. Nonni har doim muqaddas hisoblab, e`zozlab kelamiz. Non ham non ushog`i ham non” degan maqol ham mavjud bo`lib ,bu maqolda bir parcha non, hatto uning ushog`ini ham ehtiyot qilishga chorlash mazmuni yotadi. Bunday maqollarni ko`plab keltirish mumkin. Bu haqda rivoyatlar ham bor. Tuyaning ustida non yeb ketayotgan badavlat bir insonning qo`lidan non ushog`i to`kilib ketadi. Tuyadan tushib xar qancha urunmasin o`sha mitti urvoqni topolmaydi. Shundan keyin ushoq tushgan joy atrofini mustahkam qo`rg`on bilan o`rattiradi. Ko`rinib turganidek ,non xalqimizda nihoyatda qadrlanadi va e`zozlanadi. Shunday ekan nonga nisbatan noshkurlik qilish qat`iy qoralanadi. „nonko`rlik qilmoq” iborasi ham shu nuqtai nazardan kelib chiqqan bo`lib , yaxshiliklarni unutish , nohaqlik yoki xiyonat qilish ma`nosida ishlatilib salbiy bir mazmunni anglatadi. Va „nonko`rlik qilmoq” fe`l

⁵⁴ O`sha manba 192-bet

frazemasida ifodalangan harakat, holat uning bajaruvchisiga nisbatan o`ta salbiy yondashiladi va bu qattiq qoralanadi.

Mir (Bekjonga) Mirzaga ayt,amlokdor nomiga xat bitsin.”mamlakat ahvolidan doimo xabardor bo`lub tursunlar, toki biron kor hol yuz bermasun”,- deb tayinlasin. Janobi oliy haqiga xiyonat qilishni man etsun. Kimki bo`y so`nmasa,zindonga tashlansin!⁵⁵

So`z boyligimizda “haqiga xiyonat qilish” iborasi mavjud bo`lib uning bo`lishli shaklda qo`llanilishi salbiy o`rinda, shuningdek, u anglatgan tushuncha qattiq qoralangan holatda yuzaga chiqadi. Azaldan poklik,halollikni ulug`lagan, peshona teri bilan hayot kechirishni odat qilgan xalqimiz turmush tarzida birovning haqiga xiyonat qilish eng yomon holat va illatlardan hisoblanadi va qattiq qoralanadi.

“Vose’ qo`zg`oloni“ dramasidan olingan mazkur parchada ham ushbu iboraning qo`llanilishi til va ma`naviyat aloqasini yuzaga chiqargan,bizningcha. Muallifning mahorati shundaki, asarda qahramonlar tilidan xalqimiz madaniy dunyosini va o`ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi frazemalardan foydalangani holda, nafaqat asar badiiyatini va o`qishliligini ta`minlagan. Shuningdek, tilimizning betakror jozibasi va keng imkoniyatlarini ochib berish bilan birga yuksak ma`naviyatli, beqiyos insoniy fazilatlarga ega xalqimizning qiyofasini ko`rsatib bergan.

⁵⁵ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. III жилд. –Т.: Маънавият, 2003. 179-bet

II bob yuzasidan xulosalar

Ikkinchi bobda Fitrat dramalarida qo'llanilgan iboralarning lingvokulturologik xususiyatlarini tekshirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Lingvokulturologiya bu muayyan xalqning o'ziga xos xususiyatlari, madaniy hayoti, ma'naviy dunyosining tilda namoyon bo'lishini o'rganadi;

- Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligida, ya'ni madaniyatning tilda aks etishida frazemalarning ham o'ziga xos o'rni mavjud;

- Ayrim frazemalarda uning tarkibida ishtirok etayotgan so'zlar lingvokulturologik ahamiyat kasb etishi mumkin;

- Frazema o'zining ifoda etayotgan mazmuniga ko'ra undagi lingvokulturologik xususiyatlar namoyon bo'ladi;

- Fitrat dramalarida ham lingvokulturologik xususiyatga ega frazemalar talaygina qismni tashkil etadi;

- Dramalarda qo'llanilgan frazemalarda o'zbek xalqiga xos xususiyatlar va fazilatlar namoyon bo'lgan;

- Lingvokulturologik xarakterga ega bo'lgan frazemalar qahramonlar nutqida qo'llanilib, nafaqat xalq madaniy olamini o'zida ifoda etgan, balki shu xalqning bir vakili sifatida qahramon xarakterini va madaniy saviyasini aks ettirishda vosita bo'lgan.

III BOB. BIRIKMA, GAP SHAKLIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

3.1. Birikma shaklidagi frazemalarning semantik xususiyatlari

Leksik birliklarda bo‘lganidek, frazeologik birliklarda ham grammatik turkumlar ajratiladi. Bu to‘g‘risida o‘zbek tilshunosligida frazeologiyani keng o‘rganilishida katta hissa qo‘shgan taniqli tilshunos olim Sh.Rahmatullayev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” nomli kitobida alohida to‘xtalib, frazeologik birliklarning grammatik turkumlari haqida shunday yozadi: “Bular asosan modal frazeologik birliklardan iborat bo‘lib, mazmunan rang-barang: *turgan gap* II (shakshubhasiz), *xudo xohlasa* (nasib qilsa), *xudo biladi* (aniq aytib bo‘lmaydi) *gapning ochig‘i* (to‘g‘risini aytganda), *gapning po‘stkallasi* (fikrning lo‘ndasi), *xudoga shukur* (sabr-qanoat, mamnuniyat ifodalovchi birlik), *xudo saqlasin*, *xudo ko‘rsatmasin* (noxushlik yuz bermasligini tilab aytiladigan birlik).

Oz bo‘lsa-da, undov frazeologik birliklar ham mavjud bo‘lib, afsuslanish (*sho‘rim qursin, esim qursin*), taajjub (*qayoqdan kun chiqdi?*, *shoxi bormi?!*), qutlov (*qadamingizga hasanot*), istak (jon koshki edi) kabi ma’nolarni ifodalaydi.”⁵⁶

Frazemalarning grammatik qurilishi deganda morfologik shakllanishi va sintaktik qurilishi nazarda tutiladi. Tilimizda mavjud bo‘lgan frazemalarda sintaktik bog‘lanishlarning deyarli barcha turlari o‘z aksini topgan.

Ko‘pchilik frazemalarning grammatik qurilishi birikmaga teng hisoblanadi. Erkin birikmalarda bo‘lgani kabi sintaktik qurilishi birikmaga teng frazemalarda ham tobe a‘zo leksemashakl bilan, hokim a‘zo esa leksema bilan ifodalanadi hamda frazema bir butun holda turg‘un birikmaga teng bo‘ladi : *aqlini yemoq, yoqasini ushlamoq*.

Birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida biron

⁵⁶ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: Universitet, 2006. 418-bet

sintaktik bo‘lak vazifasida kela oladigan darajada grammatik shakllangandan keyin butunga, birikma shaklga aylanadi.

Birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatidayoq birikma shaklga teng bo‘ladi. Masalan, *oyoq osti* frazemasini asli qaratqich+qaralmish shaklida tuzilgan birkmaga teng, lekin bu frazema faqat birlik egalik shaklida ishlatiladi, bunday grammatik tabiat ushbu frazemaga lisoniy birlik sifatida mansub: *Oyoq osti bo‘lishiga yo‘l qo‘ymadim*. Xuddi shunday tuzilishli erkin birikma ham mavjud bo‘lib, oyoq ostida, oyoq ostidan kabi ot birikmaga xos turli grammatik shakllarda ishkatilaveradi

Demak, birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalarga bir butun holda tashqi grammatik shaklanish lisoniy birlik sifatida shu jihatidan bunday frazema erkin birikmalardan farqlanadi.

Shunday frazemalar ham borki, ular qurilishi jihatidan gapga teng shaklga ega. Bunday frazemalarda ega va kesim munosabati bo‘ladi. Ularning birinchi shakli –di zamon qo‘shimchasini, 3-shaxs fe‘l nisbati qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinishi mumkin. Bu frazemaning tarkibini va sintaktik bog‘lanishini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

[ko‘zi+Sb+(N)+Kb] x [tin+(b)+(M/3)+TsIII].

Bunday frazemaning gap shakliga teng ekanligi tarkibida ega vazifasidagi leksema shakl qatnashayotganligi va shu leksema shaklda anglashiladigan bajaruvchining shaxs-soniga monand ravishda frazemaning oxirgi a‘zosiga tuslovchi qo‘shilayotganligi bilan belgilanadi. Tuslovchidan oldin bunday tuzilishli frazemaga bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon shakl yasovchisi qo‘shiladi.

Ko‘rinadiki, gapshaklga ega teng frazemada tuslovchining ahamiyati bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchilarining ahamiyatidan keskin farq qiladi. Chunki frazemani tuslovchining o‘zi asosida gapshaklga teng deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Qachonki, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchilari qo‘shilgandan keyingina gapshaklga teng frazema yuzaga keladi. Shunday qilib, sintaktik qurilishi gapshaklga teng frazema ham aslida qism

holatida to'liq grammatik shakllangandan keyingina butunga teng bo'ladi. Masalan, tarvuzi qo'ltig'idan tush-. Ushbu frazemani nutq vaziyatida sintaktik shakllantiradigan bo'lsak, butun holatida taxminan shunday berishimiz mumkin: Kecha bu xabarni eshitib, tarvuzi qo'ltig'idan tushibdi. Mazkur gapda qo'llangan ibora o'tgan zamon qo'shimchalarini olganda to'liq shakllangan bo'ladi.

Tarkibida ega bo'lagi bor ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida to'liq grammatik shakllangan birikmaga teng bo'ladi. Masalan, "Bir qoshiq suv bilan yutguday- beqiyos go'zal, nihoyatda dilrabo".⁵⁷ Bu ibora "sifatlovchi aniqlovchi+to'ldiruvchi+kesim" qolipida tuzilgan gapshakliga teng. Lekin bu frazema faqat bir shaklda –guday shakl yasovchisi qo'shilgan holda ishlatiladi.

Shunday frazemalar ham borki, ular tarkibida ergash qism bo'lib, ergash gapshakl qatnashadi. Ammo ular birikmaga teng hisoblanadi. Chunki ularning hokim qismi leksemaga teng. Ular biror bir sintaktik vazifani bajarib kelishi uchun nutq vaziyatida ma'lum bir grammatik ko'rsatkichlarni ya'ni qo'shimchalarini olishi mumkin. Masalan, "Tepsa, tebranmas" iborasini oladigan bo'lsak, birinchi qism faqat kesimdan iborat tobe gap shaklida bo'lsa, ikkinchi qism bitta so'zga teng.

Ayrim frazemalarda birinchi qism birikma shakliga, ikkinchi qism esa gap shakliga teng bo'ladi. "Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoq-yaxshilik qilaman degan holda yomonlik qilib qo'yimoq".⁵⁸ Bu frazemaga lisoniy birlik sifatida ko'rsatkich mansub emas, u nutq bosqichida qo'yiladi. Masalan, kampir qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'ydi. Bu gapda ibora birinchi qismi yaxlit holda ikkinchi qismi esa ravishdosh va zamon qo'shimchalari bilan shakllangan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, frazemaning ifoda jihatiga uning tarkibidagi leksemalargina emas, balki frazemaning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadigan morfemalar ham mansub bo'ladi, chunki bunday morfemalar o'rni bilan tuslovchi ham frazemaning ichki grammatik qurilishi uchun ahamiyatlidir.

⁵⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. 44-bet

⁵⁸ O'sha manba. 292-bet

Frazemani nutqda ishlatish munosabati bilan qo‘shiladigan morfemalargina uning ifoda jihatiga mansub bo‘lmaydi.

Endi bevosita Fitrat dramalarida ishtirok etgan frazemalarning grammatik qurilishiga e‘tibor qaratamiz.

“Frazemalarning ko‘pchilik qismi birikmaga teng qurilishli.”⁵⁹ tilda mavjud frazemalarning aksariyat qismini birikmaga – so‘z birikmasiga teng qurilishga ega bo‘lgan iboralar tashkilm etganidek, Fitratning aynan biz diqqat qaratgan dramalarida mavjud frazemalarning ko‘pchiligi aynan shunday grammatik xususiyatga ega birikmalardir. Shulardan ba‘zilarini Grammatik qurilishi jihatidan tahlilga tortdik.

G‘ulomhaydar. O‘rtoq! Ish shuncha qiyin emas. Fotimaxonim qizini sizga bermakchi emish. Karimbaxshixon-da bunga ko‘ngan emish, qizlarning tilini onalar bilalar.⁶⁰

“Chin sevish” dramasida keltirilgan ushbu – “Tilini bilmoq” frazemasini berilgan gapda fe‘l-kesim vazifasini bajarib kelgan. Unga bo‘lishli shakl yasovchisi, zamon shakli, III shaxs-son ko‘plik shakli qo‘shilganligi uni shu o‘rinda kesim sifatida shakllantirgan. Bundan yuqorida aytilgan iboraning ya‘ni “birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida qismga teng bo‘lib, biror sintaktik bo‘lak vazifasida kela oladigan darajada grammatik shakllangandan keyin butunga, birikma shaklga aylanadi.”⁶¹

Xuddi mana shunga o‘xshash iboralarni yana ko‘plab uchratish mumkin.

Qurbon Jevachi. Nasib bo‘lsa, kayf qilamiz! Taqsir, Vose’ deganning bir qizi bor deng, ketvorgan. Ana o‘shani olib kelishsa, dimog‘ingiz chog‘ bo‘lardida!⁶²

“Vose’qo‘zg‘oloni”da keltirilgan “Dimog‘i chog‘ bo‘ldi” iborasi gapshaklga teng ibora sanalib uning tarkibidagi “dimog‘i” so‘zi ega “chog‘ bo‘ldi”

⁵⁹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Universitet,2006. 421-bet

⁶⁰ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият,2003. 18-bet

⁶¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Universitet,2006. 415-bet

⁶² Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2003. 174-bet

kesim bo‘lak sifatida shakllantirilgan. Bunda ega o‘ziga egalik turlovchisini kesim esa kesimlik shakli bo‘lgan zamon tuslovchisini qabul qilgan holda qollanadi.

Vose’. Meni saylashga sayladilaring, ammo quloq osmasalaring, bundan ne foyda? ⁶³

Yuqorida tilga olingan dramada bosh qahramon – Vose’ning o‘z yelkadoshlariga qaratilgan nutqidan olingan ushbu parchada “Quloq osmoq” iborasi ham birikma qurilishiga teng bo‘lib, tobe qism belgisiz tushum kelishigi shaklida, hokim bo‘lak esa nutq vaziyatiga qarab ma’lum bir ko‘rsatkichni olishi mumkin. Ushbu keltirilgan misolda tobe bo‘lak o‘z holicha, hokim bo‘lak esa bo‘lishsizlik shakli, mayl ko‘rsatkichi(shart mayli), III shaxs-son ko‘plik shaklini qabul qilib, turg‘un birikma kesim sintaktik vazifasini bajarib kelgan.

Nodirshoh. “... Xoningiz, el-ulusingiz meni do‘stlarcha qarshi olsalar, to‘rt-besh kun turib, qaytib ketarman. *Yomonliq, dushmanliq ko‘rsatsalar, kullarini ko‘kka uchirarman*”, - dedilar. ⁶⁴

Ushbu parchada qo‘llangan “kulini ko‘kka uchirmoq” iborasi bugungi kunda “kulini ko‘kka sovrmoq” tarzida iste’molda mavjud. “Butunlay yemirmoq”, “yo‘q qilmoq” ma’nolarida ishlatiladi. Ushbu frazema qurilishiga ko‘ra uch so‘zning yaxlitlanib qolishidan tashkil topgan bo‘lib, aslida qismga teng birikmadir. Ma’lum grammatik shakllar orqali bir butun holda qo‘llanilgan. Bunda birinchi so‘zdagi – *ni* tushum kelishigi qo‘shimchasi, ikkinchi so‘zdagi jo‘nalish kelishigi shakli qo‘shimchasi ibora tarkibida yaxlitlangan holda qo‘llaniladi. Bu uning grammatik qurilishiga xos tabiatidir. Uchinchi so‘z nutq bosqichida istagan shaklni olib, muayyan sintaktik vazifani bajarib kelishi mumkin. Keltirilgan gapda zamon, shaxs-son ko‘rsatkichini qabul qilgan. Bu uch so‘z o‘rnining, bog‘lanishining barqarorlashuvi bitta tushunchani yuzaga keltirib, birikma shakliga teng frazemalardan biridir.

⁶³ O‘sha manba. 174-bet

⁶⁴ O‘sha manba. 193-bet

Bir a'zo. Shu erta osilgan uch kishining hollari butun xalqning qonini qaynatdi.⁶⁵

“Qonini qaynatmoq” birikma shakliga teng ibora ham nutq bosqichida bir butun holda shakllanuvchi birikma sanalib, keltirilgan o‘rinda, ya’ni “Chin sevish” dramasida epizodik qahramon nutqidan olingan. Grammatik qurilishiga ko‘ra birikma shakliga teng. Nisbatlovchi va zamonda tuslovchilar bilan shakllan.

Hakimbiy. Kelturingiz. (Rahim to‘qsoba yugurib chiqar, Hakimbiy yurib so‘ylar) Yana shuni yubordi. Oramizni buzg‘an odamning Ulfat bo‘lg‘onini bila turib, yana shunday qiladir. Shu aql bilan xon bo‘lib turmoq istaydir.⁶⁶

Ora(lari)ni buzmoq. *Kim kimning* – oralari buzildi *kimlarning* - o‘zaro munosabatlarini yomonlashtirmoq. Varianti: orani buzmoq.⁶⁷

Ushbu ibora grammatik qurilishida ham lisoniy birlik sifatida qismga tenglik xususiyati mavjud. Yuqorida keltirilgan parchada ega va kelishik turlovchilari hamda o‘tgan zamon sifatdoshi bilan shakllanib, gapda sifatlovchi aniqllovchi vazifasida kelgan. Bunda o‘tgan zamon sifatdoshi -gan, -g‘an tarzida qo‘llangan. Bu esa o‘sha davr tiliga xos xususiyat. Bu frazeologik birlik ham qurilishi jihatidan birikmaga teng.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, shunday birikmaga teng qurilishli frazemalar ham borki, ular lisoniy birlik sifatidayoq birikma shaklga teng bo‘ladi. Bunday birikmalar bitta shaklda lisonda mavjud bo‘lib, ushbu frazemaga lisoniy birlik sifatida mansub bo‘ladi. Masalan, “yeng ichida – ko‘pchilika oshkor qilmay, zimdan”⁶⁸ iborasi ham nutqda xuddi mana shunday, ya’ni tobe qism belgisiz qo‘llangan qaratqich kelishigi shaklida, hokim qism o‘rin-payt kelishigini holda keladi. Bu shakllar frazemada o‘zgarmas holatda mavjud.

Ammo buning singari nikohlarning *yeng ichida* birov bilib, birov bilmaydigan yo‘sinda bolishiga ishongani uchun tashvishi zo‘rayar, hovliqar edi.

⁶⁵ O‘sha manba. 338-bet

⁶⁶ O‘sha manba. 3-jild. 197-bet

⁶⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Т.:Ўқитувчи, 1978. 194-bet

⁶⁸ O‘sha manba. 79-bet

Oybek. “Qutlug` qon.”⁶⁹ Fitrat dramalaridagi iboralar orasida shunday grammatik qurilish tabiatiga ega frazemalar uchraydi.

Tosh yasovul. Yo`q, hammang kerak emas. Bir-ikkita *og`zi kattangni* olib borsam, bo`lgani (Nozimga: tur o`rningdan!- deydi. Vose`ga qarab: “Sen ham yurasan biz bilan!” ,- deb baqiradi. ).<sup>70</sup> Og`zi katta- katta og`iz 1. Soxta kibr-havoli, maqtanishni yaxshi ko`radigan.⁷¹

Dramada qo`llanilgan ushbu frazema ham barqaror shaklga ega bo`lib, nutq vaziyatida ayni shaklda qo`llaniladi. Ya`ni nutq bosqichida boshqa bir shakllar bilan shakllantirilmaydi Keltirilgan o`rinda ibora vositasiz to`ldiruvchi vazifasini bajaradi. Sifat turkumiga kiruvchi frazema bo`lib, otlashgan holda egalik shaklini qabul qilib kelgan. Erkin birikma bilan omonimlik hosil qila oladi. Umuman olganda, ushbu frazema lisoniy birlik sifatida to`liq shakllangan birikmaga teng.

Odina Mirza. *Bajonu dil*, taqsir! (Qizni olib chiqadi).⁷² Tasdiqni kuchaytirish ma`nosida qo`llaniluvchi ushbu frazema ham har qanday nutq bosqichida doimiy shaklga ega bo`lib, *ba-* old qo`shimchasi hamda yuklama shaklini olgan holda lisonda mavjud. Tilimizda mavjud “*bir og`izdan*” frazemasini Sh. Rahmatullayev shunday izohlaydi:

“*bir og`izdan*- 1. Yakdillik bilan, hamjihatlik bilan. Sinonimi: *bir ovozdan* Hamma *bir ovozdan* taklifni ma`qulladi. Said Ahmad, Uzun til. “ Juda soz!, - deyishdi zveno a`zolari bir og`izdan. N. Nazarov. Zamon.”⁷³

“Abulfayzxon” dramasida ham qahramon tilidan shu ibora qo`llaniladi:

Nodirshoh. ...Hakimbiyning o`zi ham shunda bo`lg`on, hammalari *bir og`izdan* xonga gapurganlar. Bu kun hammalari xonni olib, bizga kelar ekanlar.⁷⁴

Ushbu frazema ham ayni ko`rsatilgan shakli bo`yicha qo`llaniladi, ya`ni lisoniy birlik sifatida birikma shaklga teng. Bizningcha bu birikmaning erkin

⁶⁹ Osha manba. 79-bet

⁷⁰ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2003. 186-bet

⁷¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1978. 293-bet

⁷² Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2003. 173-bet

⁷³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1978. 42-bet

⁷⁴ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. –. Т.: Маънавият, 2003. 198-bet

birikma shakli yo'q. Demak, so'z birikmasi bilan omonimlik hosil qilolmaydi.
Bunday iboralar frazemalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi.

3.2. Gap shaklidagi frazemalarning semantik va grammatik qurilish xususiyatlari

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, shunday frazemalar ham borki, ular grammatik qurilishi, xususan, sintaktik qurilishi jihatidan gap shakliga teng bo'ladi. Shuningdek, ularning tarkibida ega bo'lak mavjud bo'ladi. Ayni biz o'rganayotgan manbalarda ham bunday xususiyatli frazemalarni bir necha o'rinda uchratish mumkin. ularning ba'zilarini keltirib o'tishni lozim topdik. Tosh yasovul. *Haddingdan oshma*, Nozim, og'zingga qarab gapir! Nozim. *Pichoq borib suyakka tegdi*. Nima qilsang, qil! Menga jon ham kerakmas, bola-chaqayam.

Vose'. *Bor qo'lingdan kelganini qilaver! Toza jonga tegdi...*

Tosh yasovul. Nima deding? (achchig'lanib o'rnidan turib ketadi) Nozim. Vose' haq gapni aytdi, *jonimizdan to'ydirding*.⁷⁵

Keltirilgan parchada qo'llanilgan frazemalar sintaktik qurilishi jihatidan gapga va birikmaga teng bo'lib, bularning gap shakliga teng ekanligi tarkibida bosh bo'laklar- ega va kesimning, asosan, eganing mavjudligi bilan belgilanadi. Birikma shaklidagilari esa nutq vaziyatida ma'lum ko'rsatkichlarni olib shakllanadi. Gap shaklidagi iboralarda ega vazifasida kelayotgan leksema shakl va mana shu leksema shakldan anglashilayotgan bajaruvchining shaxs-soniga mos holda frazemaning oxirgi a'zosiga tuslovchining qo'shilayotganligi uni gap shaklida yuzaga chiqargan. Bu frazema semantikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak bezish, bezor bo'lish holatining yuqori darajasini obrazli ifodalaydi. "Og'zingga qarab gapir" gapi frazema bilan ifodalanib, uning egasi yashirilgan. Buyruq maylidagi sodda gapga teng bo'lib, undagi ikkinchi shaxs egalik hamda buyruq mayli shakli obyektiv voqelikka ko'ra nutqning o'zida tanlab olingan. Ushbu matnda ham matndan tashqairda ham o'ylab gapirish ma'nosni ifodalaydi. "Pichoq borib suyakka tegdi" frazemasini ham xuddi shunday gapshaklga teng frazema hisoblanib, Sh. Rahmatullayev uni shunday izohlaydi:

⁷⁵ O'sha manba. 172-bet

Pichoq borib suyakka yetdi- Ortiq chidab bo‘lmaydi. Varianti: pichoq suyak-suyagiga yetdi.⁷⁶ Bu ibora to‘liq gap tarzida shakllangan bo‘lib, pichoq- ega bo‘lak, suyakka- to‘ldiruvchi, yetdi-kesim.

“Qo‘ldan kelganini qilmoq” iborasi ham aslida birikmashaklga teng. Ammo yuqoridagi parchada gap sifatida shakllantirilgan. “Jonga tegdi iborasi “ ham gap shaklga teng.

Lo‘li. Bu yigitning rangi o‘chgan, o‘zi juda xafa. Bir narsani o‘ylaydir.⁷⁷

“Arslon” dramasidan olingan ushbu parchada “rangi” so‘zi iboraning ega bo‘lagi bo‘lib, o‘chdi so‘zi kesim vazifasini bajaradi. Ibora tarkibida Grammatik asosning mavjudligi uni gap sifatida shakllantirgan. Yuqoridagi parchada nutq bosqichidan kelib chiqqan holda kesim o‘tgan zamon tuslovchi ko‘rsatkichini qabul qilgan.

Qurbon Jevachi. Men, sho‘ring qurg‘ur, boshim yorilib, qo‘lim sinib, bo‘lg‘onimcha bo‘lib yuribman-u tag‘in haqorat qilasiz.⁷⁸

Parchada qahramon nutqida ajratilgan sifatlovchi aniqllovchi vazifasida kelgan “sho‘ring qurg‘ur” iborasi birikma shakliga teng ibora bo‘lib, u lisoniy birlik sifatidayoq shunday shaklga ega.

Bekjon. Angda qolishgan deysiz, o‘zi aytyapti-ku, avzoyi buzuqligini oldindan bilgan edim deb.⁷⁹

Bunda “avzoyi buzuq” frazemasi holati, kayfiyati yomon ma’nosida qo‘llanilib, bu ham grammatik qurilish jihatidan gapga tengdir. Bu birikma nutq bosqichining o‘zidayoq bosh shaklida qo‘llanilgan.

Frazeologizmlar orasida “sabr kosasi to‘ldi” gap shakliga teng ibora ham mavjud bo‘lib, uning ham tarkibida ega bo‘lak qatnashgan. Bunda sabr kosasi- ega, to‘ldi – kesim. Bu ibora “Vose’ qo‘zg‘oloni” dramasida haqsizlik va zulmdan

⁷⁶ O‘sha manba. 192-bet

⁷⁷ O‘sha manba. 143-bet

⁷⁸ O‘sha manba. 173-bet

⁷⁹ O‘sha manba. 173-bet

ezilgan xalqning ruhiy holatini bir qahramon misolida ochib berishda muhim rol o'ynagan.

Mulla Nazir. Hammasi noliydi, nima qilishni bilmay hayron...sabr-kosasi to'lgan.

Bu nutqiy vaziyatda kesim tarkibiga o'tgan zamon tuslovchisi qo'shilgan. Bu o'rinda qahramon ruhiy holatini, ya'ni zulm-sitamlardan bezgan odamlar kayfiyatini berish uchun qo'llangan.

Umuman olganda, Fitrat dramalarida qo'llanilgan iboralarning deyarli barchasi grammatik qurilishiga ko'ra birikma yoki sodda gap shaklida. Yuqorida ularning ba'zilarini ko'rib chiqdik. Shu o'rinda aytish kerakki, bu iboralarning aksariyatini birikma shaklidagi frazemalar tashkil qiladi. Quyida birikma shakldagi iboralardan ba'zilariga to'xtalamiz. Misollar olingan manba qavs ichida ko'rsatiladi.

Yuragini yormoq Rahimbaxsh... yovvoyi anglizlar yuragimni yomon yordilar. Kunduz kuni bosqin qildilar. ("Hind ixtilolchilari", 62-bet)

Og'zi katta-maqtanchiq

Tosh yasovul. Yo'q, hammang kerak emas, bir-ikkita og'zi kattangni olib borsam bo'ldi. ("Vose' qo'zg'oloni", 172-bet)

Tayoq yemoq- savalanmoq

To'lg'un. So'kulub, tayoq yeganim kunlarida qanday qilib meni ovutmoqqa, meni yig'latmasliqqa tirishadir. ("Arslon", 149-bet)

So'zida turmoq – va'dasini bajarmoq

Botur. Eson bo'l, o'rtoq. Esizkim... So'zingda tura olmaysan. ("Arslon", 115-bet)

Yuziga qaray olmaslik -uyalish

Botur. Kampir enamning yuziga qaray olmay qoldim. ("Arslon", 114-bet)

Tishini g'ichirlatmoq-tahlikaga solmoq

Arslon. ... bu ishlari oz ekan-da, hech kimga yomonliq istamagan bizlarga ham tishlarini g'ichirlata boshladilar. ("Arslon", 95-bet)

tosh ko'ngullik - berahm

Tursunbibi. Tosh ko'ngullik boy boyaqish yigitga uch-to'rt kun muhlat ham bermadi. ("Arslon", 113-bet)

tumshug'i tagida - yaqinida

Mavloni. Olmonlar ikki oylik yo'lda, ingliz bo'lsa tumshug'imizning tagida turibdir. Yo'q Olmoniya uchun bor Inglizdan ayrilmoq to'g'ri siyosat emas. ("Hind ixtilolchilari", 59-bet)

boshiga chiqmoq - aytganlarini bajartirish, buyrug'iga yo'rg'alatmoq

Abulfayzxon. Yegan tuzlar ko'r etsin uni... kimni tuproqdan ko'tarib, kursiga chiqarsak, tezgina boshimizga chiqmoqchi bo'ladir.

("Abulfayzxon", 183-bet)

tinchligini buzmoq - bezovta qilmoq

Abulfayzxon. Emdi bir-ikki buzuq bosh chiqib, mening tinchligimni buzmoq istaylar. Qo'yaman sizni. ("Abulfayzxon", 183-bet)

Dunyoni titratmoq - biror bir xususiyati bilan yuksalmoq, barchaga tanilmoq

Ulfat. Shahanshoh hazratlarining muborak huzurlariga kelgan hoqonimiz bir zamonlar dunyoni titratgan Chingizxonning avlodidan erurlar.

("Abulfayzxon", 199-bet)

Qo'lga tushirmoq - tutmoq, ushlamoq

Badrinat. Ishingiz bizni qo'lga tushirmak edi. Tushirdingiz.

("Hind ixtilolchilari", 89-bet)

Ko'nglini ovutmoq-yupatmoq

G'ulomhaydar. Shunga yonoshmoq (yondoshmoq, yaqinlashmoq) gapurmoq, dardini onglab, ko'nglini ovutmoq istaram.

("Chin sevish", 6-bet)

Uyini kuydirmoq - juda og'ir ahvolga solish

Tursun. Taqsir, bunday qilmang! Mening uyimni kuydirasiz-ku. ("Arslon", 101-bet)

Bosh ko'tarmoq – qo'zg'olon qilmoq

Abdusubbuh. Yuz yillardan keyin biz o‘zimizni qutqarmoq uchun bosh ko‘tardik; bizrlashdik, qutulmoq istadik. (“Hind ixtilolchilari”, 63-bet)

Dodiga yetmoq – arzini tinglamoq

Norxola. ... gunohlari yo‘q- dodimizga hech kim yetmaydir, holimizni hech kim so‘ramaydir. (“Arslon”, 136-bet)

Gap shaklidagi iboralardan ham ba‘zilarini keltiramiz:

Ajali yetdi – o‘ldi

Rahmatlik ajali yetganmi bilmadim: ishing bo‘lmasin, o‘zim bilaman, deb javob qildi. (“Hind ixtilolchilchilari”, 173-bet)

Achchig‘i keldi – g‘azablandi

Amirning achchig‘lari kelganda uni yetmish besh tayoq urib, rikobdan haydaganlar. (“Vose’ qo‘zg‘oloni”, 130-bet)

Boshini yeydi – o‘ziga zarar keltirdi

Abulfayzxon. Yana bizga xiyonat qila boshladi. Eng so‘ng o‘z boshini yeydi. (“Abulfayzxon”, 185-bet)

ko‘zi qonga to‘ldi - jahli chiqdi

Abulfayzxon. Farhod otaliqning boshini oyoqlar ostida ko‘rdim (ko‘zlarini tutib) uff, ko‘zlarim qonga to‘ldi. (“Abulfayzxon”, 185-bet)

Bunday iboralarni qo‘llangan parchalarni ko‘plab keltirish mumkin.

III bob yuzasidan xulosalar

- Shakl va mazmun birligidan iborat soʻz singari iboralar ham qurilish xususiyatiga koʻra oʻrganiladi.
- Iboralar grammatik- sintaktik va morfologik qurilishiga koʻra, gap shaklida, birikma shaklida, tarkibida tobe qism boʻlgan ergash gap shakliga, tarkibidagi birinchi qism birikma, ikkinchi qism esa gap shakliga teng boʻlishi mumkin.
- Fitrat dramalaridagi iboralarining deyarli hammasi Grammatik qurilishi jihatidan birikma va gapga teng
- Dramalardagi birikma va gapga teng iboralarining koʻpchiligi nutq bosqichida grammatik koʻrsatkich olib, shakllangan. Ayrimlari esa lisoniy birlik sifatidayoq mavjud. Iboralarga nutq bosqichida qoʻshilgan koʻrsatkichlar davr tiliga xos xususiyatga ega, yaʼni hozirgi kunda mavjud shakllardan farq qiladi.
- Birikma shakliga teng iboralar koʻpchilik qismni tashkil etadi.

Umumiy xulosa

Fitrat dramalarida milliy ozodlik, adolat va vatanparvarlik tushunchalari juda yorqin ruh va obrazlarda o'z aksini topgan. Adib g'oyasi va asar mazmunini ochishda qahramonlar tilida ularning fe'l-atvori va xarakteri, dunyoqarashi va madaniy saviyasi kabi unsurlarni ko'rsatish muhim vositalardan bo'lib xizmat qilgan.

- Yozuvchi qahramonlar nutqini, uning tasvirlangan voqealardagi o'rni va individual xarakter xususiyatlariga qarab ishlab chiqqan.

- Asarning xalq orasiga tez va oson kirib borishi hamda xalq ruhiyatiga ta'sir etishi maqsadida sodda va ravon ifodalardan, badiiy tili leksikasi va o'rni kelganda xalq jonli tilida mavjud o'ziga xos ko'chma ma'noli so'zlardan, shuningdek, frazeologizmlardan unumli foydalangan.

- Biz tadqiqotimizga obyekt sifatida tanlagan "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari", "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni", "Vose' qo'zg'oloni" dramalarida umumiy hisobda, taxminan, uch yuzga yaqin frazema ishtirok etgan.

- Dramalarda frazemalardan mohirona foydalanish adib mahoratini yaqqol ko'rsatgan va asar badiiyatini ta'minlagan.

- Fitrat umumxalq tilida mavjud iboralardan ijodiy-individual foydalangan o'rinlar ko'plab uchraydi.

- Dramalardagi iboralarning ayrimlari hozirda ham iste'molda faol, ba'zilar kam uchraydi, ayrimlari o'zgarishga uchragan, ayrimlari umuman uchramaydi.

- Bu dramalardagi ko'pchilik iboralar izohli frazeologik lug'atga kiritilmagan. Biz to'plagan 200 yaqin misoldan 100dan ortiq "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da uchramaydi. Bularning aksariyati hozirgi o'zbek adabiy tilida kuzatilmaydi.

- Muallif dramalarida frazeologizmlardan tashqari matal, maqol kabi boshqa turg'un birikmalardan ham unumli foydalanganki, ular tasvirning jonli, xalqchil va yuqumliligini ta'min etgan.

- Shunday iboralar ham uchraydiki, ular o'z ma'nosini tamoman yo'qotib, umuman boshqa bir ma'noda qo'llanilgan.
- Dramalarda qo'llanilgan iboralar turli o'rinlarda - qahramon va muallif nutqida kelib, ular drama qahramonlarining fe'l-atvori va ruhiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.
- Asarlarda mavjud frazemalar harakat-holatni, ruhiy holatni, fe'l-atvorni bildirib kelish bilan birga narsa va hodisalarning ham xarakterli tomonlarini ko'rsatib bergan.
- Dramalarda keltirilgan iboralarni ma'nosiga ko'ra harakat-holat bildiruvchi, fe'l-atvor bildiruvchi, ruhiy holat bildiruvchi iboralarga bo'lish mumkin.
- Fitrat dramalaridagi iboralar semantik jihatdan tasnif qilinganda harakat- holatni bildiruvchi frazemalar aksariyat qismni tashkil etadi.
- Fe'l-atvor bildiruvchi frazemalar nisbatan kamchilikni tashkil qilsada, o'z o'rnida drama qahramonlarining xarakter-xususiyatini ochib berishda ahamiyat kasb etgan;
- Ruhiy holat bildiruvchi iboralar ham qahramon ichki kechinmalarini, ham ruhiy holat ta'siridag kayfiyat va o'zgarishlarni ifodalab bergan;
- Dramalar tarkibida kuzatilgan iboralar harakat- holatni, ruhiy holatni, fe'l-atvorni ifodalashi bilan birga narsa buyumlarning xususiyatini ifodalash uchun ham qo'llanilgan.
- Dramalarda qo'llanilgan ayrim iboralarda xalq turmush tarzi va madaniyatga oid tushunchalar ifodalanib, ular lingvokulturilogik ahamiyat kasb etadi
- Lingvokulturologiya bu muayyan xalqning o'ziga xos xususiyatlari, madaniy hayoti, ma'naviy dunyosining tilda namoyon bo'lishini o'rganadi;
- Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligida, ya'ni madaniyatning tilda aks etishida frazemalarning ham o'ziga xos o'zni mavjud;

- Ayrim frazemalarda uning tarkibida ishtirok etayotgan soʻzlar lingvokulturologik ahamiyat kasb etishi mumkin;
- Frazema oʻzining ifoda etayotgan mazmuniga koʻra undagi lingvokulturologik xususiyatlar namoyon boʻladi;
- Fitrat dramalarida ham lingvokulturologik xususiyatga ega frazemalar talaygina qismni tashkil etadi;
- Dramalarda qoʻllanilgan frazemalarda oʻzbek xalqiga xos xususiyatlar va fazilatlar namoyon boʻlgan;
- Lingvokulturologik xarakterga ega boʻlgan frazemalar qahramonlar nutqida qoʻllanilib, nafaqat xalq madaniy olamini oʻzida ifoda etgan, balki shu xalqning bir vakili sifatida qahramon xarakterini va madaniy saviyasini aks ettirishda vosita boʻlgan.
- Tahlilga tortilgan iboralar grammatik qurilishi jihatidan birikma va gap shakliga teng.

Umuman olganda Fitrat dramalarida qoʻllangan va tahlilga tortgan frazemalarimiz asarlarning badiiy qimmatini oshirish bilan birga muallif badiiy niyatining yuzagachiqishida ham muhim oʻringa ega. Ayrim oʻrinlarda iboralarining aynan lugʻatdagi shakli qoʻllanmaydi. Muallif oʻz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yangi iboralar ham kashf qiladi. Fitrat dramalarida xalq poetic tafakkurida pishib yetilgan, ogʻizdan ogʻizga koʻchib yuruvchi, badiiy nutq yaratishda katta oʻrin tutuvchi frazemalardan mohirona foydalanilgan. Bunday frazemalarni tadqiq etish leksikografiya va frazeologiya sohalarini rivojlantirishda , lingvokulturologiya asoslarini yaratishda , oʻzbek lingvo madaniyatida konseptual va lisoniy dunyo tasvirlarini yoritishda muhum ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008
2. Karimov I. Adabiyotga e'tibor- ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009
3. Abdusaidov A. Frazelogizmlar – matbuot tilida ta'sirchan vosita. – Samarqand, 2001.
4. Almamatova SH. shaxs tavsifli frazemalarining semantik tahlili// O'zbek tili va adabiyoti, 2004. 3-son,- 78-80b
5. Bafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural – semantik tahlili. NDA.-Toshkent , 2009. 23-b
6. Maslova V. A. Lingvokulturologiya . – Moskva, 2001
7. Mamatov A. Frazelogizmlarning shakllanishining nazariy asoslari .- Toshkent , 1997.- 28b
8. Mamatova A. Frazelogizmlarning shakllanish asoslari .- Toshkent , 1996.- 54b
9. Mamatov A.E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari// o'zbek tili va adabiyoti, 1994 4-5-6-son, - 49-55-b
10. Mirtojiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, o'quv qo'llanma. –T, 2000.
11. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari.- Toshkent: O'qituvchi, 1995
12. Pinxasov Ya. D. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya va frazeologiya), - Toshkent.: O'qituvchi, 1969
13. Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek va rus tillarida frazeologik antonimlar. Toshkent .1999
14. Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent.: Universitet, 2006

15. Rahmatullayev SH. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari . - Toshkent 1955
16. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining qisqach frazeologik lug‘ati.. – Toshkent, 1978
17. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – Toshkent, 1955
18. Rahmatullayev Sh. Frazeologiya, “Hozirgi zamon o‘zbek tili” darsligi, - Toshkent, 1957.
19. Rasulov R, A. Mirazizov. O‘zbek tili. – Toshkent: Aloqachi, 2005
20. Suvonova N.N. Frazeologiyaning sistem-sath birligi sifatidagi talqini. NDA. – Toshkent, 2008.
21. Usmonova Sh. O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar. Filol.fan. nomzod. ...diss. – T.: 1998
22. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007
23. Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari, Samarqand, SamDU nashri, 1999.
24. Yo‘ldoshev B. Frazeologiya tarixidan lavhalar. Samarqand, “Sug‘diyona” nashriyoti, 1998
25. Yo‘ldoshev B, Bozorboyev Q. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati, Samarqand, 1998
26. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent: O‘qituvchi, 1980
27. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка : Дисс. Канд.филол. наукю- Ташкент .1976. 8с
28. Салимова Ф. Лексикографические и текстологические характеристики “Восточно-тюркского словаря” Паве де Куртейла и переводов “Бабурнаме”. Автореф. дисс.... канд. филол. наук.-Ташкент, 1997.-26 с.
29. Самадов К. Фразеологиянинг пайдо бўлишига доир.// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, - Тошкент, 1960. 4-сон.

30. Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов “Хазойин-ул маоний” Алишера Навои. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук.-Л.,1968.-20 с.
31. Умаров Э.А. “Бадаи-ал-лугат” и “Санглах” как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка XVI-XVI вв. Дисс....д-ра филол.наук. Т.:1989. -296 с.
- 32.Ефимов А.И Стилистика художественной речи.- М.,1978
- 33.Фитрат А. Танланган асарлар. I, III жилдлари. –Тошкент: Маънавият, 2003
- 34.Қахҳорова Ҳ. Абдулла Қодирий романларидаги фразеологизмлар. Филол.фан.ном.....дисс.-Т.,1995.